

ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI

2-QISM

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining
2-sinfi uchun darslik

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi
nashrga tavsiya etgan

Yangi nashr



Toshkent – 2021

UO'K 811.512.133(075.3)
KBK 81.2(50'zb)ya71
O 58

Tuzuvchilar:

Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Quronov, Shokir Tursun

Xalqaro ekspert:










Lannuzzi Susan

Taqrizchilar:

B. Mengliyev – filologiya fanlari doktori, professor.

N. Paxritdinova – Toshkent shahri Yashnobod tumanidagi
67-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

SHARTLI BELGILAR:



Ona tili va o'qish savodxonligi. 2-qism [Matn]: darslik 2-sinf uchun /
K. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 120 b.

*UNICEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi
bilan hamkorlikda tayyorlandi.*

*Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari
hisobidan chop etildi.*

*Original maket va dizayn konsepsiyasi
Respublika ta'lim markazi tomonidan ishlandi.*


MUNDARIJA

6-BO‘LIM. YOSH IQTISODCHI

Quvnoq ferma.....	5
Mustahkamlash	5
Vaqtning qadri	12
Mustahkamlash	5



7-BO‘LIM. FAN VA TEXNOLOGIYALAR



Robot ixtiro qilaman	16
Mustahkamlash.....	26
G‘aroyib ixtirolar	27
Mustahkamlash.....	34
Quyosh – quvvat manbayi ...	35
Mustahkamlash.....	42

8-BO‘LIM. TIL VA DIL

Shaxsiy kutubxona	43
Mustahkamlash.....	50
So‘zni topib ishlating.....	51
Mustahkamlash.....	59





9-BO'LIM. TARIX XAZINALARI

Samarqand – tarix beshigi.....	69
Mustahkamlash.....	80
Yozuvni kim ixtiro qilgan?.....	81
Mustahkamlash.....	89

10-BO'LIM. SAN'AT VA MADANIYAT

Mo'yqalam mo'jizasi.....	98
Mustahkamlash	104
Bolalar qo'shiqlari	105
Mustahkamlash.....	110



11-BO'LIM. HUQUQIMIZ – HAQIMIZ

Yo'l qoidasi – umr foydasi	98
Mustahkamlash	104
Navbatda turishni bilasizmi?	105
Mustahkamlash.....	110

TAKRORLASH	98
Matnlarda qo'llangan so'zlar lug'ati.....	117





Rasmlarga diqqat bilan qarang.



- ① Fermada nimalar tasvirlangan?
- ② Fermer kim? U nima bilan shug‘ullanadi?
- ③ Fermada parranda va hayvonlarni nima uchun boqamiz?
- ④ Ulardan qanday daromad olish mumkin?
- ⑤ Siz ham yashab turgan joyingizda ferma bormi? Unda nimalar boqiladi?



Rasmdagi hayvon va parrandalarning nomini yozing.



“Sobirjon fermer” matnini tinglang.





- ① Sobirjonning fikr-xayoli nima uchun tovuq boqishda bo'lib qoldi?
- ② Sobirjonning g'oyasini birinchi bo'lib kim qo'llab-quvvatladi?
- ③ Sobirjon nima uchun pul yig'ib yurgandi?
- ④ Dadasi qanday munosabat bildirdi?
- ⑤ Sobirjonga tovuqxona eshigini yasashni qanday o'rgandi?
- ⑥ Doim ko'chada koptok o'ynab, vaqtini o'tkazadigan bola nima uchun uyga bog'lanib qoldi?
- ⑦ Sobirjonga onasi qanday maslahat berdi?
- ⑧ Mahallaga hokimiyat vakillari qanday taklif bilan kelishdi?
- ⑨ Oqsoqol hokimiyat vakillariga nima dedi?



Daftaringizdagi matn asosida berilgan topshiriqlarni bajaring.

1. Ushbu hikoyada ishtirok etgan qahramonlarni alohida ajrating.
2. Hikoyada bo'lib o'tgan voqealar ketma-ketligini aniqlang.
3. Quyida berilgan ma'lumotlarning qaysi biri to'g'ri, qaysi biri noto'g'ri ekanligini ayting.
4. Sobirjon jo'jalarni yaxshigina daromad manbayiga aylantirish uchun ularni qanday parvarishladi? Yozing.



Maktab o'quvchisi bo'lsa-da, mahalladoshlariga madadkor bo'lgan yosh tadbirkor Sobirjon Mansurovga maktabni bitirgach, ishlarini yanada kengroq yo'lga qo'yishi uchun kredit berishga qaror qilindi. Sizda ham shunday imkoniyat bo'lganida siz ushbu kreditni nimalar uchun sarflagan bo'lar edingiz?





KUCHUKMI YOKI ITCHA?

Jahongir shaharda yashaydi. Yozda u bobosi bilan qishloqqa mehmonga bordi.

Voy-bo'... ammasi-ning uyi hayvonot bog'ining naq o'zi ekan. Qo'rada qo'y, echkilar, og'ilda sigir, buzoq, ot, eshak, katakda ona-



bola tovuqlar, hovli etagidagi hovuzchada o'rdak, g'ozlar... Jahongirning hayratdan og'zi ochilib qoldi.

U tovuqxonaga ketayotganda ro'parasidan po'm-paloqqina kuchukcha chiqib qoldi.

Qo'rqib ketgan Jahongir: – tezroq doda, itchani ushlang, bo'lmasa, anavi tovuqchani yeb qo'yadi, – deb baqirib yubordi.

Jamol buva yugurib kelarkan, qotib-qotib kulardi.

– Nega kulasiz, doda, qarang anavi eshakchanning jahli chiqib, yig'layapti.

– Voy bolam-ey, gapingga kulyapman-da. U eshakmas, uning bolasi – xo'tik-ku. U yig'lamayapti, hangrayapti.

– E, qayerdan bilaman, men axir ularni avval ko'rmaganman-ku, – xafa bo'ldi Jahongir.

– To'g'ri, ko'rmagansan. Lekin sakkiz yoshga kirding, endi ularni bilishing kerak. Hozir, men xo'tik bilan go'salaga o't tashlab qo'yay. Keyin senga jonivorlar bolalarining nomlarini o'rgataman, – dedi Jamol buva mehribonlik bilan.

Bobo-nabira katta yong'oq daraxti tagidagi supaga o'tirishdi. So'ng Jamol buva tanishtirishni boshladi.

– Baliqning tuxumi va pardadagi bolasi “uvildiriq”, baqaning bolasi – “itbaliq”, qushning bolasi – “polapon”, tovuqning bolasi – “jo‘ja”, qo‘yning bolasi – “qo‘zichoq”, echkning bolasi – “uloq”, itning bolasi – “kuchuk”, mushukning bolasi – “xumpar”, cho‘chqaning bolasi – “jish”, yovvoyisi – “to‘ng‘iz”, eshakning bolasi – “qudung” va “xo‘tik”, otning bolasi “qulun”, yoshiga qarab “toychoq”, “g‘o‘non”, “do‘non”, “pishti” deb ataladi, tuyaning bolasi – “bo‘taloq”, kiyikning bolasi “momoloq”, ohuning bolasi – “quralay”, sigirning bolasi – “buzoq”. Bizning shevada uni “go‘sala” ham deyishadi. Tushundingmi, bo‘talog‘im?



– I-ye, dodajon, bo‘taloq tuyaning bolasi-ku, – kulib yubordi Jahongir.

– Ha, bilaman, biroq bobolar nabiralarini “toychoq”, “bo‘taloq” deb erkalatsa bo‘laveradi. Sen esa yuqorida aytganlarimni unutma, kelishdikmi, toychog‘im.

– Kelishdik, – dodasini quchoqladi Jahongir.

Avera Fayziyeva



- ① Jahongir nimadan shunchalik hayratlandi?
- ② Jamol buva nimaga qotib-qotib kuldi?
- ③ Jahongir jonivorlarning bolasini nima der ekan?
- ④ Nima uchun Jahongir jonivorlarning nomini bilmadi?
- ⑤ “Qo‘ra” nima ekan?
- ⑥ Jahongir bobosini nima derkan? Siz bobongizni qanday ataysiz?
- ⑦ Siz yashaydigan joyda jonivorlarni yana qanday atashadi?



Matn asosida jadvalni to'ldiring.

Ular qayerda yashaydi?

1. Qo'y, echkilar

3. Tovuqlar

4. O'rdak, g'ozlar

2. Sigir, buzoq, ot, eshak





Quyidagi gapda ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ma'nosi bir-biriga yaqinmi yoki teskarimi?

– Nega **kulasiz**, **doda**, **qarang anavi eshakchani**ning jahli chiqib, **yig'layapti**.



Matn yuzasidan berilgan topshiriqlarni bajaring.

1. Quyidagi uy hayvonlariga qanday nom qo'yish mumkin? Ularning nomi qanday yoziladi?



2. Ushbu hayvonlarning rangi, hajmini qiyoslovchi qarama-qarshi ma'noli so'zlardan ayting.

Namuna: oq ot – qora ot; semiz ot – ozg'in ot.



OQSHOM

Bir piyola choy kabi
Bulut oyni **ho'pladi**.
Tovuq beka katakka
Jo'jalarin to'pladi.

Echki-uloq tush ko'rib,
Poxol uzra yotishar.
Mushukchalar sut so'rab,
Onasiga yopishar.

Sigir erka buzoqni
Qashib qo‘yar kallalab.
Qo‘y uxlatar bolasin
Asta ma‘rab – allalab.



Faqat jajji kuchuklar
Hurib qo‘yishar “vak-vak”.
Onasiga o‘xshashib
Tunda ham ular **sergak**...

Anvar Obidjon



- 1 She‘r nima haqida?
- 2 Sizga she‘rning qaysi qismi hammasidan ko‘ra ko‘proq yoqdi? Nima uchun?
- 3 Siz she‘rga qanday sarlavha qo‘ygan bo‘lar edingiz?
- 4 Ayting-chi, bir piyola choyni ho‘plash bilan bulutning oyni ho‘plashi o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor?



Berilgan so‘zlarga mos keladigan izohlarni aniqlang.



“Oqshom” she‘rini yoddan aytib bering.





“Qari Makning fermasida” qo‘shig‘ini tinglang.



- 1 Qo‘shiqning sizga eng yoqqan tomoni qaysi bo‘ldi?
- 2 Qo‘shiqda jonivorlarning tovushi qanday so‘zlar bilan ifodalangan?



Partadoshingiz bilan qo‘shiq asosida suhbatlashing.

Bola: _____?

Qiz: _____.



Qari Makning fermasidagi jonivorlarning nomi va ularga xos belgilarni yozing.



“Mening kichik fermam” mavzusida loyiha tuzing.

1-qadam: fermangizda nima boqmoqchisiz?

2-qadam: fermangizga nom tanlang.

3-qadam: fermangizga nimalar kerak?

4-qadam: qanday foyda olmoqchisiz?

5-qadam: daromadingizni nima qilasiz?



Tuzgan loyihangizni rasm yoki chizma ko‘rinishida ifodalalang.



“Mening kichik fermam” mavzusidagi loyihangiz asosida matn yozing.



MUSTAHKAMLASH



Jadvalni to'ldiring.

Sherlarni yana qanday nomlaymiz?	
Qayerda yashaydi?	
Nimalarni ovlaydi?	
Sherlar nimadan qo'rqishadi?	
Uning og'irligi qancha?	
Tirnoqlari qanday bo'ladi?	



Tinglang. Topishmoqlarning javobini to'g'ri ketma-ketlikda yozing.

1

2

3

4





Rasmlarga qarab gaplar tuzib yozing. Berilgan soʻzlardan foydalaning.



hushyor

dangasa

tartibsiz

beparvo

mas'uliyatli

tartibli



- 1) Aytingchi, tartibli odam vaqtdan qanday foydalanadi?
- 2) Kimlarni mas'uliyatli deb ataymiz?
- 3) Tartibsiz, dangasa, beparvo odamlarning vaqti qanday o'tadi?



Rasmlarga qarab gaplar tuzib yozing. Berilgan soʻzlardan foydalaning.



Qaysi qo'shimcha mos kelishini toping.



tartib

-li

-siz




tartib

-li

-siz



“Men vaqtni boshqaraman” audiomatnini tinglang.



- 1 Vaqtdan unumli foydalanish uchun nima qilish kerak?
- 2 Reja tuzganda kunni qanday qismlarga ajratamiz?
- 3 Dam olish uchun qancha vaqt ajratgan ma'qul?
- 4 Uyqudan keyin televizor ko'rishning zarari nimada?
- 5 Nega soat to'qqizdan uxlashga taraddun ko'rish kerak?



Kunni rejalashtirib olish bizga nima uchun kerak?

- A. Vaqtdan unumli foydalanish uchun
- B. Maktabga kechikmaslik uchun
- D. Ota-onamizni xafa qilmaslik uchun



Gaplarni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga mos so'roqni ko'rsatib gaplarni ko'chiring.

1. Reja tuzganda kunni uchta qismga ajrating.
2. Maktabdan kelgach bir – biryarim soat dam oling.
3. Rejangizda eng muhim ishlar birinchi o'rinda tursin.
4. Shu bilimning yarmi esdan chiqib ketadi.
5. Soat to'qqizda uxlashga taraddud ko'ring.

Nechta?

Qancha?

Necha?

Nechanchi?



DONISHMAND SOAT

1-qism



Uy devorida qizchanning bobosidan qolgan eski soat osig'liq turardi. U **ahyon-ahyonda** vaqtni eslatib **bong urib qo'yardi**. Bir kuni soat bong urmay qo'yibdi.

– Endi vaqtni qanday bilaman? – debdi qizcha soat oldiga kelib.

Kutilmaganda soat:

– Hammasiga o'zing

aybdorsan, – deya javob qaytaribdi qizchaga.

– Iye, sen hali gapirishni ham bilasanmi?

– Men hamisha gapirganman. Faqat sen eshitishni istamagansan.

– Eh, vaqtni to'g'ri ko'rsatmasang, maktabga kech qolishim mumkin-ku!

– Xuddi doim vaqtida boradigandek gapirasan-a, – kulibdi soat. – Qachon qarama, kechikib yurasan. Sen vaqtni umuman qadrlamaysan, bilding?

Shunday qilib, xafa bo'lgan soat vaqtni ko'rsatmay qo'yibdi. Qizcha aniq vaqtni bila olmay ko'p qiynalibdi.

Bir kuni qizcha soat oldiga kelib, shunday debdi:

– Kelishib olaylik, soatvoy. Sen avalgidek vaqtni to'g'ri ko'rsatasan, men esa zararli odatlarimni tashlayman.

– Bo'пти, lekin bir shartim bor: yangi daftar tutasan va unga kunlik rejalarini yozib borasan.

– Shu bugunoq daftar tutganim bo'lsin!

– Yana tartib-intizomga ham o'rganishing kerak. Shunda bo'sh vaqting ko'payib, foydali ishlar bilan shug'ullana olasan.

– Hamma gaping to'g'ri... Voy, aytgancha, bugun buvimni ko'rgani bormoqchi edimku. **Sen bilan bo'lib**, esimdan ham chiqa yozibdi.



- ① Soatning qaysi hislatlari uni “donishmand” deb atashga sabab bo'ladi?
- ② Soat nega arazlab, ishlamay qoldi?
- ③ Soatning ishlamay qolishi qanday oqibatlarga olib keladi?
- ④ Tartib-intizom deganda nimani tushunasiz?
- ⑤ Bo'sh vaqtingizda qanday foydali ishlar bilan shug'ullanasiz?




DONISHMAND SOAT

2-qism

Qiz shoshganicha narsalarini yig'ishtira boshlabdi. Soat esa nasihat qilishda davom etarmish:

– O'zing bilan birorta qiziq kitob ol. Bekatda avtobus kutib, bekor o'tirganningda o'qiysan. O'qish – eng foydali mashg'ulot!



– Soatvoy, shuncha narsani qayerdan bilasan?

– Men juda eski soatman. Qiladigan ishim odamlarga vaqtni ko‘rsatish. **Millarim pichirlab umr oqar daryodek tez** o‘tib ketishini eslatib turadi. Uzoq vaqtdan buyon odamlarni kuzataman. imdir vaqtni qadrlaydi, kimdir esa, yo‘q. Vaqtini qadrlab, foydali ish



qilgan kishilar ko‘p yaxshiliklarga ulgurganlarini ko‘rdim. Umrini keraksiz o‘yin-kulgiga sarflaganlar **afsus qilib qolganini** ko‘rdim. Biroq hamma ham buni o‘z vaqtida tushunib yetmaydi. Sen ham shundaylardan bo‘lib qolma deyman-da.

Ular qani endi, vaqt orqaga qaytsa-yu, xatolarimni tuzatsam, deya afsuslanib qolaverishadi.

Qiz donishmand soatning gaplarini tinglab, o‘ylanib qolibdi.

– Haliyam shu yerdamisan? – yolg‘ondakam achchiqlanibdi soat.

– Bunaqada buvingning oldiga ham kechikib borasan-ku!

Qizcha bir jilmayib qo‘yibdi-yu, chopqillab uydan chiqib ketibdi. Xonada yana donishmand soatning bir maromda chiqillashi eshitila boshlabdi.

“Zamonaviy ertaklar” kitobidan



- ① Soat qizga nimalarni nasihat qildi?
- ② Bo‘sh vaqtda kitob o‘qiysizmi? Qanday kitoblarni o‘qimoqchisiz?
- ③ Vaqtni behuda o‘tkazgan odamlarning holi qanday bo‘ladi?



Ajratib ko'rsatilgan o'rinlarning izohini toping.



Donishmand soatning so'zlashi, qizchaga nasihat berishi sizga kimni eslatadi? Nima uchun?



Daftardagi topshiriqlarni bajaring.



So'z tarkibida ikkita bir xil undosh yonma-yon kelishi mumkin. Bular **qo'sh undoshli** so'zlardir. **Masalan: ikki, amma, gramm, barakalla.**



O'qigan matningizda qo'sh undoshli so'zlardan qaysilarini uchratdingiz?



SOAT

Har bir kunni bo'lib-bo'lib,
Yigirma to'rt soat qilib,
Rejasini tuzib olgan,
Hisobini chizib olgan.
U der: "Vaqt asl-qimmat,
Vaqt – umr, vaqt – hayot".
Yugurganday baxt izidan,
Yuguramiz vaqt izidan.
Kim mehnatni sevsa chindan,
Vaqt qochmaydi aslo undan.



Ishimizga doim shaymiz,
Vaqtни yuvosh jilovlaymiz.
Chiqmaydi u izimizdan,
Biz ham shodmiz, u shod bizdan.
Qadrlaymiz vaqtimizni,
Vaqtdan topdik baxtimizni!

Qambar ota



- 1 She'ning muallifi kim? Muallifning yana qaysi she'rlari bilan tanishsiz?
- 2 Ayting-chi, shoir bu she'ni nima uchun yozgan?
- 3 Bir kun nacha soatdan iborat ekan?
- 4 She'rdagi qaysi gaplar soatning tilidan aytilgan?
- 5 Nima uchun she'rda vaqt umrga qiyoslangan?
- 6 "Kim mehnatni sevsa chindan, Vaqt qochmaydi aslo undan" deganda nimani tushundingiz?
- 7 Soat haqida she'r yozsangiz uni nimalarga o'xshatib ta'riflagan bo'lar edingiz?



Soat vaqtlarini ayting va yozing.



8:18



5:35



Maqollarni o'qing. Mazmunini muhokama qiling.

Vaqt tog'ni yemirar,
Suv toshni kemirar.

Uch kun barvaqt turgan
bir kun yutar.

Yoqut bilan vaqt topilmas,
Vaqt bilan yoqut topilar.

Vaqting ketdi –
naqding ketdi.



Maqollarning sharhini yozing.





Birgalashib soat maketini yasang.

Kerak bo'ladi:

- ✓ Oq qog'oz
- ✓ Karton qog'oz
- ✓ Sirkul
- ✓ Qistirgich
- ✓ Yelim
- ✓ Rangli qalamlar



Yasash jarayoni:

1. Kartonga oq qog'oz yopishtiring.
2. Sirkul bilan doira shaklini chizing.
3. Soat vaqtlarini yozib chiqing.
4. Kartondan soat ko'rsatkichlarni qirqib oling.
5. Ko'rsatkichlarni qistirg'ich bilan soatga qotiring. Shunday qotiringki, ko'rsatkichlar aylansin.



Partadoshingiz bilan soat vaqtini to'g'ri topishda bellashing.

Partadoshingiz soat ko'rsatkichini buraydi, siz esa soat vaqtini aytasiz. Keyin o'rin almashasizlar.



Namuna asosida kun davomida qilgan ishlaringiz aks etgan hikoya yozing. Unda soat vaqtlari ko'rsating.

Namuna Ertalab soat 7:00 da uyg'onib, tishimni yuvaman.



MUSTAHKAMLASH



Siz vaqt haqida she'r va maqollar o'qidingiz. O'qiganlaringiz o'xshatib, vaqtga chiroyli ta'rif berib uchta gap tuzing.



Nechta? qancha? nechanchi? so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlardan uchtdan yozib jadvalni to'ldiring.

Nechta?

Qancha?

Nechanchi?




Rasmdagi bolalardan biri haqida hikoya yozing.





Rasmlarga qarang. Hozirda robotlar qanday vazifa bajarayotgani haqida so‘zlang.



- ① Siz yaqin kelajakda hammaning uyida robotlar bo‘lishiga ishonasizmi?
- ② Odamning robotdan eng katta farqi nimada deb o‘ylaysiz?
- ③ Odamlardagi qaysi xislatlarni robotlarga o‘rgatib bo‘lmaydi deb hisoblaysiz?
- ④ Robotlar haqida multfilm yoki kino ko‘rganmisiz? Ularning mazmunini qisqacha gapirib bering.




Multfilm yoki kinoda ko‘rgan robotlaringiz qanday harakatlar bajarishini yozing.

Namuna: qutqaradi,





“Kelajak robotlarnikimi?” audiomatnini tinglang.



- 1 Sizing atrofingizda yana qanday aqlli qurilmalar bor?
- 2 Yapon mehmonxonalarida robotlar qanday ishlarni bajaradi?
- 3 Robotlardan, asosan, qanday joylarda foydalanishadi?
- 4 Kelajakda robotlar hammaning uyida xizmat qilishiga ishonasizmi? Nega bunday o'ylaysiz?
- 5 Sizing-cha, robotlarning hayotimizga kirib kelishi xavflimi?



Matn asosida berilgan topshiriqlarni bajaring.




IXTIROCHILAR TANLOVI

Uzoq kutilgan tanlov boshlandi. Birinchi bo'lib sahnaga Ibrohim ismli bola chiqdi.

– Men ko'p ixtirolar qilganman, – Ibrohim jiddiy ohangda gap boshladi. – Hozirda robotlarim qishloq xo'jaligida mehnat qilyapti.

– Xo'sh, Ibrohim, bu safar bizni nima bilan lol qoldirasiz? – so'radi hakamlarning biri.



Bolakay biroz hozirlandi. Uning ko'krak kerib turishidan biror olamshumul ixtiro qilganini payqash qiyin emasdi.

– Marhamat, Bog'bonrobot bilan tanishing, – dedi u qo'llarini ko'tarib.

Sahnaga to'rt g'ildirakli, bir qarashda chang-yutkichni eslatadigan droid chiqib keldi. Bog'bonrobot sahna bo'ylab turli harakatlar qilib yurarkan, yosh ixtirochi g'oz turib unga ta'rif bera boshladi:

– Bog'bonrobot yirik bog'larda ishlash uchun yaratildi. Unga daraxtlarni sug'orish, hasharotlardan himoya qilish va hosilni yig'ib olish dasturlari o'rnatilgan.

So'ng Ibrohim Bog'bonrobotga o'rnatilgan uskunalarni ham birma-bir tanishtirib chiqdi:

– Bu qurilmaning qo'llari, – u robotning ikki yonidagi uzun-uzun qo'llarga ishora qildi. – Ular bilan hosilni yig'ib olish mumkin. Temir qo'llar belkurak vazifasini ham bajaradi. Daraxt tagini yumshatish ham, uni sug'orish ham shu qo'llar bilan qilinadi. Robotning orqa tarafidagi maxsus naycha bilan dori purkaladi. Bu esa mevali daraxtni turli hasharotlardan himoya qilish uchun zarur.

Tanlovga yig'ilganlar hayrat bilan Bog'bonrobotni kuzatishardi. Ular ixtirochi bolani “Otangga rahmat!”, “E, qoyil!” deb olqishlashardi.

“Galaktikada bir kun” asaridan



- 1 Ibrohim sahnada o'zini qanday tutdi? Uni tasvirlab bering.
- 2 Ibrohim nima maqsadda robot yasagan edi?
- 3 Bog'bonrobot qanday ishlarni bajara oladi? Birma-bir sanang.
- 4 Ibrohimni o'rnida bo'lganingizda, siz qanday robot yasagan bo'lar edingiz?





Robotni ixtiro qilish jarayonida unga biror vazifani yuklash uchun nima qilish kerak?

- A. Unga buyruq berish kerak.
- B. Maxsus dastur o'rnatish kerak.
- D. Robotning miyasi bo'lishi kerak.



Matn asosida topshiriqlarni bajaring.



QALTIS SAVOL

Eh, shunday bir robot bo'lsa,
Yechib bersa misollarni.
Og'ir-og'ir masalalar,
Qiyin-qiyin savollarni.


Yodlab bersa she'rlarni,
Teorema, qoidani.
Xotiramga joylab qo'ysa,
Yod olishga oidini.

Insholarni yozib bersa,
Xato qilmay birorta ham.
Olgan a'lo baholarni
Ikkalamiz ko'rsak, baham.



Ammo uzoq o'ylab-o'ylab,
Birdaniga jim bo'laman.
Hamma ishni robot qilsa,
Unda, o'zim kim bo'laman?!

Xudoyberdi Komilov





Rasmga qarab og‘zaki hikoya aytib bering. Hikoyangiz boshqalarnikiga o‘xshab qolmasin.



Hikoyangizda quyidagi savollarga javob bo‘lsin:

1. Ixtirochi bolaning ismi nima?
2. U nima uchun robot yasashni istaydi?
3. Robotni nimalardan yasadi?
4. Robotga qanday ism qo‘ydi?
5. Uning roboti odamlarga qanday foyda keltirdi?



Savollarga javob yozing.



“Robot ixtiro qilaman” mavzusida hikoya yozing.

- Qanday robot yasamoqchisiz?
- Uni nimadan yasaysiz?
- U qanday vazifalarni bajara oladi?
- Unga qanday nom qo‘ymoqchisiz?

MUSTAHKAMLASH




Dialogda tushirib qoldirilgan tire, nuqta, so'roq va undov belgilarini aniqlab ko'chiring.

- Bobojon, menga o'yinchoq olib bering.
- Qanday o'yinchoq bo'lsin
- Robot o'yinchoq
- Robot?
- Ha, robot temirtan.
- Tushunarli, mayli, tug'ilgan kuningda sovg'a qila-man.
- Rahmat, bobojon



Robotlarga berilgan ta'riflarni kerakli so'zlar bilan to'ldirib, gaplarni ko'chiring. Gaplarda ajratib ko'rsatilgan so'zlarga so'roq bering, ular qanday belgilarni bildiradi?



Kerakli so'zlar: uzunroq, dumaloq, to'rtburchak, qisqichsimon.

1. Birinchi robotning qorin qismi _____ shaklida, tanasi kulrang rangda.
2. Ikkinchi robotning tanasi _____ shakldan iborat, tanasi oq rangda.
3. Birinchi robotning boshi _____ shaklda.
4. Ikkinchi robotning qo'llari _____ shaklida.



O'z tasavvuringizdagi robotlarni ta'riflab 3 ta gap yozing.



- ① Qanday muhim ixtirolarni bilasiz?
- ② Biror narsani ixtiro qilishga odamlarni nima majbur qiladi?
- ③ Ruchkaning ixtiro qilinishi hayotimizga qanday ta’sir o‘tkazgan deb o‘ylaysiz?






Ixtiro – foyda keltiradigan, yangilik, kashfiyot. Odamlar biror nimani o‘ylab topishsa o‘sha narsani ixtiro qilgan bo‘lishadi.



Atrofingizga qarang, nimalarni ko‘ryapsiz? Ko‘rib turgan barcha narsangiz qachondir ixtiro qilingan. Ko‘rayotgan narsalaringiz nomini ayting. Ularni nima maqsadda ixtiro qilishgan deb o‘ylaysiz? Namunaga o‘xshatib yozing.

Namuna: *ruchka* – osonroq yozish uchun






- 1 Biror narsaning qanday ixtiro qilinganini bilasizmi?
- 2 Sizda biror nimani ixtiro qilish fikri paydo bo'lganmi?
- 3 Ko'rib turgan narsalarimiz qanday yaratilganini qayerdan bilish mumkin deb o'ylaysiz?



Matnni o'qing. Savollarga javob bering.

IXTIROCHI FRENK



Biz hozir yax deb ataydigan mevali muz bundan 117 yil oldin tasodifan yaratilgan. O'shanda Frenk 11 yosh bo'lgan. Qish, ko'cha juda sovuq edi. Frenk meva ta'mi keladigan sodaga suv qo'shib

cho'p bilan aralashtirayotgan edi. U uyga kirib ketgach suvli soda aralashmasi ichida tayogchasi bilan bir kecha hovlida qolib ketgan. Qattiq sovuq bo'lgani sabab u muzlab qolgan. Shunday qilib ilk yax paydo bo'lgan.

Frenk o't o'chiruvchilar ko'rgazmasida mana

Tasodifan – oldindan reja qilmay. Masalan, siz biror narsani atay qilmasangiz, oldindan shunday qilishni reja tuzmagan bo'lsangiz o'sha narsa tasodifan sodir bo'lgan bo'ladi.

Aralashma – bir necha xil narsalarning aralashishidan hosil bo'ladigan narsa





shunday yaxni tayyorlab barchaga tarqatadi. Ana shundan keyin yax juda mashhur bo'lib ketadi. Bu g'oya muzqaymoq ishlab chiqaruvchilarni ham juda qiziqtirib qo'ygan. Keyin bizga eskimo nomi bilan tanish cho'pli muzqaymoqlar sotila boshlagan. O'sha paytlardan beri yax va cho'pli muzqaymoqlar bolalarning sevimli yemagi hisoblanadi.



- 1 Nima uchun Frenk yaxni tasodifan ixtiro qildi deyilmoqda?
- 2 Frenk ixtiro qilgan yaxning tarkibi qanday?
- 3 Frenkning qaysi harakati yaxni mashhur qilib yubordi?
- 4 Yodning ixtiro qilinishi haqida o'qigan edingiz o'sha voqeani eslang. Yodning ixtiro qilinishi hamda yaxning ixtiro qilinishida qanday o'xshashlik bor?



Rasmdagi narsalarning nomini ayting.





Rasmdagi narsalarning nomini yozing.



Rasmdagi narsalar nimasi bilan bir-biriga o'xshaydi?



O'xshash narsalarning nomini yonma-yon yozing.

Namuna: yelparrak - konditsioner



4 guruhga bo'ling. O'xshash narsalar asosida quyidagi savollarga javob tayyorlang.

1. Bu narsalar nimasi bilan o'xshash?
2. Bu narsalardan qaysi biri birinchi ixtiro qilingan?
3. Ulardan nima maqsadda foydalanamiz?
4. Qaysi biri ko'proq foydali?



O'tgan dars asosida namunadagi kabi gaplar tuzing.

Marker bo'rdan ko'ra foydaliroq, chunki u bilan qog'ozga ham yozsa bo'ladi.

yoki

Bo'r markerdan ko'ra foydaliroq, chunki undan chiqindi chiqmaydi.

Eslatma! *Foydali* so'zi o'rniga boshqa so'z ishlatishingiz mumkin, masalan, **qulay**



Frenk ixtiro qilgan yax haqida bilib olgan edik. Yaxga o'xshatib cho'pli muzqaymoqlar ishlab chiqarila boshlanganini ham bilib olgandik. O'sha voqea asosida yuqoridagi rasmda berilgan narsalar haqida fikr yuriting. Namunaga o'xshab fikrlaringizni ayting.

Mashina velosipeddan ilhomlanib yaratilgan **bo'lishi mumkin**, chunki, unda ham g'ildiraklar bor. Ikkalasi ham yuradi. Ikkalasi ham manzilga tezroq yetib olishimiz uchun kerak.



Aniq bo'lmagan fikr haqida aytganimizdan **bo'lishi mumkin, bo'lsa kerak** birikmalaridan foydalanamiz.



Audiomatni diqqat bilan tinglang.



1. Ketrinning "Bilakqop"ni ixtiro qilishiga nima sabab bo'ldi?
2. Daniyel nima uchun arzon uylar qurishni reja qildi?
3. Ketrin ixtirosini nima uchun "Bilakqop" deb atadi?
4. Daniyelning qilgan ishini ixtiro deyish mumkinmi? Nima uchun?



Savollarga javob yozing.

1. "Bilakqop"ning qo'lqopdan qanday farqi bor?
2. Daniyel quradigan uylarning boshqa uylardan nima farqi bor?



Ketrinning “Bilakqop”i hamda Daniyelning arzon uylariga nechchi baho qo‘ygan bo‘lar edingiz? Ularning ixtirolari haqida fikrlab ko‘ring hamda baho qo‘ying.

Ko‘pchilik uchun foydalimi? ① ② ③ ④ ⑤

Sotib foyda ko‘rish mumkinmi? ① ② ③ ④ ⑤

Foydalanishga qulaymi? ① ② ③ ④ ⑤



“Yurtim uchun g‘oya” loyihasida ishtirok eting.

1. 3 guruhga bo‘lining.
2. O‘zingiz yashayotgan hudud yoki o‘qiyotgan maktabingizdagi muammolarni yozing.
3. Ularni qanday qilib hal qilish mumkinligi haqida fikr yuriting.
4. Yechim sifatida g‘oya taklif qiling.
5. G‘oyangizga nom bering.
6. Guruh bilan birgalikda g‘oyani boshqalarga tushuntiring.



Xalq ta‘limi vaziriga xat yozing. Xatda quyidagi ma‘lumotlar bo‘lishiga e‘tibor qarating.

- Xalq ta‘limi vazirining ismi, familiyasi
- o‘zingizning ism familiyaingiz
- qaysi maktabda o‘qishingiz
- kelajakda amalga oshirmoqchi bo‘lgan g‘oyangiz
- nima uchun shu ishni qilmoqchi ekaningiz
- uni qanday nomlaganingiz




Xatni o‘qituvchingizga bering.



MUSTAHKAMLASH



Rasmlarga qarang. Ushbu ixtirolar nima maqsadda qilingan deb o'ylaysiz?



Quyidagi gaplarni davom ettirib yozing.

Agar televizor bo'lmasa...

Agar mashina bo'lmasa...

Agar ruchka bo'lmasa...


Agar samolyot bo'lmasa...

Agar qog'oz bo'lmasa...

Agar quvvattosh bo'lmasa...



Tasavvur qiling, sizga quyidagilardan birortasini yana ham yaxshilash, foydali tomonlarini ko'paytirish topshirig'ini berishdi. Nimalarni o'zgartirgan bo'lar-dingiz? Nima yangiliklar qo'shardingiz?





Rasmlarga diqqat bilan qarang. Suhbatni o‘qing.

– Hoy, Robotjon, quyoshda sarg‘ayib nima qilib turibsan?

– Men shunchaki turganim yo‘q. Quyoshdan quvvat olayman.

– Bo‘lishi mumkin emas, qanday qilib?

– Bosh qismimga nurni qabul qilib oluvchi uskuna o‘rnatilgan. Bu uskuna quyosh nuri ni elektr energiyasiga aylantirib beradi.


– Qoyil! Demak, Quyosh nuridan ham elektr toki olsa bo‘lar ekan-da?

– Albatta. Mana bu rasimga qarab bariga tushunib olasan.

– Ha, endi tushundim.

– Aytgancha, quyosh tig‘ida ko‘p yuraverma. Bu odamlar uchun zararli.

“Gulxan” jurnali





- 1 Suhbatdoshlar kimlar?
- 2 Suhbat nima haqida bo'ldi?
- 3 Botirning shapkasidagi uskuna nima vazifani bajaradi?
- 4 Quyoshdan tashqari yana nimalardan energiya olish mumkin?
- 5 Chizmada nima aks ettirilgan?







Matn mohiyatini ochib bergan so'zlarni ko'chirib yozing: *quyosh*.



“Quyoshning kaltagi” matnini tinglang.




Matnni qayta eshiting. Ayting-chi, rasmlar aslida qanday ketma-ketlikda joylashishi kerak?



Berilgan topshiriqlarni bajaring.





Qunduz haqida eshitganmisiz? U qanday hayvon?

YALQOV VA QUNDUZ



Bir kuni Yalqov do'sti Qunduzning oldiga kelib dedi:

– Menga o'rmondagi eng qo'li yengil tabibni topib ber. Keyingi vaqtlarda tobim yo'q, yurishga toqatim, turishga madorim, gapirishga istagim yo'q. Qaniydi

senga o'xshab bardam va tetik bo'lsam.

Qunduz Yalqovning aslida soppa-sog'ligini, uning birdan bir kasali tanballik ekanini bilgani uchun shunday dedi:

– Senga o'zimning tabiblarimni tavsiya qilaman. Ular tufayli men doim sog'lomman.

– Men ularni taniymanmi?

– Albatta, taniysan. Ularning biri – O'rmon tabib. Men uning bag'rida yayrab yashayman. Musaffo havosidan to'yib nafas olaman. Mevalaridan to'yib yeyman. Ikkinchisi – Daryo tabib. Uning suvlarida miriqib cho'milaman. G'uborlarim tarqab, yengil tortaman. Uchinchisi va eng saxovatlisi – Quyosh tabibdir. U faqat meni emas, butun olamni o'zining issiq tafti bilan davolaydi. Barchaga hayot, umid bag'ishlaydi.

Bu tabiblar doim biz bilan birga. Negadir, sen buni his qilmayapsan. Menimcha, sen dangasalik kasaliga chalingansan. Bilib qo'y, bu kasallikni faqat mehnat va harakat bilan yengish mumkin. Ana shundagina tabiatdagi tabiblar senga ham yordam beradi.

Shukrullo Abdullayev



- ① Yalqov Qunduzga qanday shikoyat bilan kelibdi?
- ② Ayting-chi, "qo'li yengil tabib" qanday bo'ladi?
- ③ Qunduzning tabiblarini ayting.
- ④ Yalqovning kasalini nima bilan davolash mumkin ekan?



Berilgan topshiriqlarni bajaring.




OFTOB BOBO



– Qarimas nega oftob,
Nega nuri bo'lmas sob?
– Oftobning bag'ri keng,
U hammani ko'rar teng,
Hatto kichik maysa ham
Nuridan ko'rar baham.
Qalbida so'nmas qo'r bor,
Oftob emas ziqna, tor.
Oftobda katta tilak,
Shuning-chun joyi yuksak.
Olamga sochib qo'rin,
Ulashar mehr nurin.
Niyatiga yarasha
Shu'lasini qaynab toshar.

Tinmay sochsa ham, qara,
Nuri kamaymas zarra.
Quyosh ma'nosi – mehr,
Mehr tugarmi, axir?
Saxiydir
Shuning uchun
Oftobning umri uzun!



Rauf Tolib



- 1 She'rdagi oftobga xos qanday sifatlar berilgan?
- 2 Quyosh nuri she'rdagi yana qanday atalgan?
- 3 Nima uchun oftobning joyi yuksakda ekan?
- 4 "Oftobning umri uzun". Nima uchun?



Berilgan topshiriqlarni bajaring.



"Oftob bobo" she'rini yoddan aytib bering.




Birgalikda quyoshcha yasaymiz.



"Men quyoshni kim (nima)ga o'xshatgim keladi?" mavzusida matn tuzing.

Men quyoshni _____ga o'xshatgim keladi. Chunki...



MUSTAHKAMLASH



Quyosh harakatiga qarab kun qismlarining nomini toping.



Bobo va nabira suhbatini o'qing. Tushirib qoldirilgan nuqta, so'roq va undov belgilarini aniqlang.

- Bobojon, quyosh birdaniga g'oyib bo'lib qolsa, nima bo'ladi
- Hamma yoq qop-qorong'i bo'lib qoladi Yer yuzi tezda sovib ketadi
- Vooy Quyosh bizga shunchalik kerakmi
- Albatta Quyosh hayot manbaimiz, u bepoyon olamga tinimsiz yorug'lik tarqatib turadi
- Ha, endi tushundim
- Bolajonim, quyosh tig'ida ko'p o'ynamaslik kerak U terimizga nisbatan ko'zlarimizga ko'proq zarar yetkazadi Bundan tashqari, oftob urganda bosh og'rib, ko'ngil ayniydi, harorat ko'tarilib burundan qon ketadi
- Xo'p bo'ladi, bobojon Quyosh qizdirganida hech qachon o'ynamayman
- Barakalla



Matnni ko'chirib oling. Nuqta, so'roq va undov belgilarini to'g'ri qo'llang.



1.1 Suratlariga qarang. Ularda nima tasvirlangan?



- 1) Sizning uyingizda kitob javoni bormi?
- 2) Siz qayerda o‘tirib kitob o‘qiysiz? Uyingizda siz kitob o‘qishni yaxshi ko‘radigan joy bormi?
- 3) Rasmdagi shaxsiy kutubxonalardan qaysi biri sizga ko‘proq yoqdi? Nima uchun?
- 4) Sizda imkoniyat bo‘lganida shaxsiy kutubxonangizda qanday qulayliklar bo‘lar edi?
- 5) Shaxsiy kutubxonaning jamoat kutubxonasidan nima farqi bor?





2.1. Audiomatni tinglang.



- ① Kutubxonaga a'zo bo'lish qanday hujjatning nusxasi kerak?
- ② Nima deb o'ylaysiz, kitobxonning manzili, telefon raqami kutubxonaga nima uchun kerak?
- ③ Kutubxonadan foydalanishning qanday qoidalari bor?
- ④ Kutubxonadagi kitobni bilmasdan yirtib qo'ysangiz, nima qilish kerak? Yo'qotib qo'ysangiz-chi?
- ⑤ Siz kutubxonadan qanday kitob tanlagan bo'lardingiz?
- ⑥ Sizningcha, kutubxonalar nega kerak?



2.3. Daftardagi mashqni bajaring.



YOSHLIKDA O'QIGAN KITOBLARIM



Inson aqlini charxlab turish uchun kitob o'qishi, o'qilgan kitob mag'zini chaqib, yurakka joylashi kerak. Bolaligimda o'qigan kitoblari menga nihoyatda kuchli ta'sir qilgan. Shu tobda sizga bir sirni aytgim keldi. Kitob shunday sehri, mo'jizaviy do'stki, uni necha marta o'qisangiz, shuncha marta ta'sirlanasiz. Bu taassurotlar hech qachon bir-biriga o'xshamaydi.

“Zumrad va Qimmat”, “Ur, to'qmoq” kabi xalq ertaklarimiz men o'qigan birinchi badiiy asarlardir.

Pushkinning “Baliqchi ham baliq haqida ertak”, Gans Xristian Andersenning “Irkit o’rdakcha”, Mark Tvenning “Tom Soyerning boshidan kechirganlari”, Xudoyberdi To’xtaboyevning “Sariq devni minib” kabi asarlarini ham bolaligimda sevib o’qiganman. Ular menda olam-olam taassurot qoldirgan.

Ayni paytda shaxsiy kutubxonamda 500 ga yaqin badiiy kitob bor. Ular qanday kitoblar ekan, deb qiziqayotgandirsiz? Kitoblarimning ko’pchiligini Rumi, Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, Cho’lpon, Said Ahmad, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov kabi sevimli ijodkorlarimizning asarlari, qomuslar, hadislar, lug’atlar tashkil etadi.

Men sizning ham shaxsiy kutubxonangiz bo’lishini juda-juda istayman. Uni ozgina mablag’ bilan tashkil etish mumkin. Bugungi kunda kitob do’konlaridan istalgan kitobni topib, xarid qilsa bo’ladi.

Abdurahmon Akbar



- 1 Biz hayotda qanysi buyumni charxlaymiz? Nima uchun?
- 2 Nima deb o’ylaysiz, aqlni charxlash nima degani?
- 3 Inson aqlini qanday charxlashi mumkin ekan?
- 4 Muallif nimaga kitobni sehri va mo’jizaviy deb aytyapti?
- 5 Abdurahmon Akbar birinchi o’qigan badiiy asarlar qaysilar ekan?
- 6 Siz u kitoblarning qaysilarini bilasiz?
- 7 Shoirning shaxsiy kutubxonasida qanday kitoblar bor ekan?
- 8 Nima deb o’ylaysiz, shoir nima uchun sizning ham shaxsiy kutubxonangiz bo’lishini istayapti?
- 9 Kitob o’qiganingizda siz ham Abdurahmon Akbar yozganiday ta’sirlanganmisiz?



3.3. Daftardagi mashqni bajaring.



4.1. Daftardagi mashqni bajaring.



4.2. Sir va taassurot soʻzlarini siz matnda oʻqigan edingiz. Ularning maʼnosini yaxshiroq uqib olish uchun matndan olingan parchani va qoʻshimcha gaplarni oʻqing, savollarga javob bering.

Shu tobda sizga bir sirni aytgim keldi. Kitob shunday sehri, moʻjizaviy doʻstki, uni necha marta oʻqisangiz, shuncha marta taʼsirlanasiz. Bu taassurotlar hech qachon bir-biriga oʻxshamaydi.

Yaqinda onalar bayrami. Umarbek oyisiga chiroyli roʻmol oldi, ammo nima olganini hammadan sir tutdi.

Koʻp kitob oʻqigan bola oʻz aqli va zehni bilan boshqalardan ajralib turishi hech kimga sir emas.

Yozgi oromgohdan qaytgan Diyora oʻrtoqlariga taassurotlarni gapirib berdi.

“Zumrad va Qimmat” ertagini oʻqidim. Zumrad menda yaxshi taassurot qoldirdi.

1. Sir nima?

- A. Hamma biladigan narsa.
- B. Hech kim bilmaydigan narsa.
- C. Bu dunyoda yoʻq narsa.

2. Taassurot nima?

- A. Biror narsa yo hodisa sabab odamda paydo boʻlgan his
- B. Biror hodisa haqidagi fikr
- C. Biror narsaning xususiyati

Bugungi dars sizda qanday taassurot qoldirdi?





5.1. Rasmlarda dunyoning turli davlatlaridagi kutubxonalar tasviri berilgan. Ular bilan tanishib chiqing.



**Niderlandiyaning
Almere shahridagi
kutubxonaning
bolalar uchun
bo'limi**



**Singapurdagi
“Mening
daraxtdagi
uyim” bolalar
kutubxonasi**



**Pekindagi
“Poplar”(terak)
kutubxonasi**





AQSHdagi Brendtvud kutubxonasi



5.2. Sizing orzuingizdagi bolalar kutubxonasi qanday bo'lishi kerak?

- Unda qanday kitoblar bo'ladi?
- Kutubxonaning binosi qanday ko'rinishda bo'ladi?
- Unda kitobdan boshqa yana nimalar bo'ladi?
- U yerda o'tirib kitob o'qishga qanday qulayliklar bo'ladi?



5.3. Orzuingizdagi kutubxonaning rasmini chizing va bo'yang.



6.1. Do'stingiz chizgan "Orzuyimdagi kutubxona" rasmini ko'ring. o'rtog'ingizga chizgan rasmi haqida o'zingizni qiziqtirgan savollarni bering. Savollarni daftarga yozib oling.



6.2. Daftardagi mashqni bajaring.




MUSTAHKAMLASH



JAJJI NOSHIR

Men ertak yozaman. Oxirgi vaqtlarda ertaklarimni hamma sevib o'qiydigan bo'lib qoldi. Shu sabab ertaklarimni yig'ib kitob qilishni o'yladim. Bizning oilada bobom, tog'am, buvim va onamning kitoblari chop etilgan. Ularning kitoblari kutubxonamizda bor. Mening kitobim esa yo'q! Ertaklarimni hech qaysi nashriyot kitob qilib chiqarmasligini yaxshi bilaman. Chunki hali juda kichkinaman-da. O'ylab ko'rsam, ertaklarimni o'zim kitob qilib chiqarsam bo'lar ekan. Axir, jajji noshir bo'lishi ham mumkin-ku!



Kitob chiqarish kasbini noshirlik deb ataydilar. Noshirning ishi juda qiziq ekan. Uning ish xonasida har kuni kitob tug'iladi.

“Jajji akademik” jurnalidan



- ① Matn muallifi nima bilan shug'ullanar ekan?
- ② Uning oilasida kimlar kitob yozgan ekan?
- ③ Noshirlik bu qanday ish?
- ④ Noshirlik, sizningcha, qiziqarli ishmi?
- ⑤ Siz ham o'zingiz kitob yasab ko'rganmisiz?



1.1. Rasmlarga qarang. Ularning tagidagi gaplarni o‘qing. Gaplarning qaysi birini siz ishlatgan bo‘lardingiz?



- 1) Qalamingni ber.
- 2) Qalamingni berib tur, iltimos.



- 3) Oyi, men keldim.
- 4) Assalomu alaykum, oyijon, men keldim.



- 5) Qornim to‘ydi, ketdim.
- 6) Rahmat, ovqat shirin bo‘libdi.



- 7) Tur o‘rningdan, maktabga kech qolasan!
- 8) Bolajonim, turaqol, nonushta qilamiz.



1.2. Daftardagi mashqni bajaring.



1.3. Quyidagi iboralarni eshitganmisiz? Ularni qachon ishlatamiz?

Qo‘lingiz dard ko‘rmasin

Baraka toping!

Ko‘rmaganday bo‘lib keting





2.1. Ertakni tinglang.



- 1) Xorazm yurtida qanday tanlov o'tkazishibdi?
- 2) Dehqon yigit nima uchun tanlovda qatnashishni istabdi?
- 3) Nima deb o'ylaysiz, degqon yigit nima uchun uy, oziq-ovqat, kiyim-kechak yoki ot-arava emas, aynan qo'sh ho'kiz olishni niyat qildi?
- 4) Yomonlik haqida aytilgan gap bilan yaxshilik haqida aytilgan gapning mazmuni bitta edimi?
- 5) Podshoh dehqon yigitni nima uchun taqdirladi?



2.3. Daftardagi mashqni bajaring.



3.1. Quyidagi ikkita matnni o'qing. Ularning qaysi biri yaxshilik ketidan yaxshilik kelishini, qaysi bir yomonlik ketidan yomonlik kelishini bildiradi?

Bir yigit yo'lda ketayotib bir bog'channing devoriga ko'zi tushdi. U devorning tepa va pastki qismi betondan, o'rtasi esa taxtadan ekan. "Men shu taxtani tepib sindira olaman, men kuchliman", deb taxtani tepa boshlabdi. Bir necha marta tepganidan keyin taxta rostdan ham sinib, yerga tushibdi. Shunda taxtaning tepasidagi beton tushib ketib tepag'on bolaning oyog'ini bosib qolibdi. Betonni ko'tarishga kuchi yetmay, u dodlaganча odamlarni yordamga chaqiribdi.



Bir kishining uyida yeyishga hech narsasi qolmabdi. Xotini va bolasi och ekan. U ko'chaga chiqib, ikkita non olibdi, uyga qaytayotsa yo'lda bir ayol yosh bolasi bilan sadaqa so'rab o'tirgan ekan. U ayol "Bolamning otasi yaqinda vafot etdi. Boquvchimiz yo'q. Necha kundan beri hech narsa yemadik, yeyishga biron narsa bering", -debdi. U kishining rahmi kelib, ikkala nonni ham yetim bolaga tutqazib ketibdi. Yo'lda "o'zimning bolamni qanday to'ydiraman endi", deb o'ylanibdi. Uyiga borib qarasa, uzoq shahardan bir do'sti mehmon bo'lib kelibdi. U do'sti juda ko'p sovg'alar bilan birga oziq-ovqat ham olib kelgan ekan. Ularning ichida un, guruch, yog', go'sht ham bor ekan.



- ① Devorni tepib buzishdan odam qandaydir foyda oladimi?
- ② Devorning egalari devor buzilgandan so'ng nima qilishadi, deb o'ylaysiz?
- ③ Bola nima yomonlik qildi va uning ketidan qanday yomonlik keldi?
- ④ Siz hayotingizda shunga o'xshash holatlarni kuzatganmisiz?
- ⑤ Hikoyadagi kishi uyda och bolasi bo'la turib, ikkala nonni ham ko'chadagi begonaga berib to'g'ri qildimi?
- ⑥ Nima deb o'ylaysiz, u nima uchun shunday qildi?
- ⑦ U kishi qanday yaxshilik qildi va unga qanday yaxshilik keldi?



3.3. Daftardagi mashqni bajaring.



4.1. Matnni o'qing.

SO'ZNING TA'MI

So'zning ham mazasi, ta'mi bo'ladimi? U axir non emas-ku... yeyilsa, yoki choy kabi ichilsa? Hatto so'zni ko'rib ham bo'lmaydiku, deyayotgandirsiz. So'zning ta'mi deyilganda uning ma'nosidagi nozik tomonlari nazarda tutiladi. Buni she'rga so'z tanlash misolida tushuntirib beraman.

Deylik, "Tong" haqida shunday satrlarni to'qidik:

*Quyosh osmonga chiqdi,
Qushlar sayray boshladi.
Teraklar tebranishdi,
Gullarga shabnam tushdi.*

Mana shu "to'rtlik"ni, ya'ni fikrni ko'ngilga yaqinlashtirish uchun oddiy so'zlarni (shu o'rin uchun) "ta'mli" so'zlarga almashtiramiz. Masalan, mana bunday:

*Quyosh kuldi osmonda
Qushlar kuylay boshladi.
Qarsak chaldi teraklar,
Gullar ko'zin yoshladi.*





E'tibor bergan bo'lsangiz, "mashqimiz"ga ancha rang, shira kirdi. Bu mashqda birgina holat – gullarning nega yig'layotgani aytilmagan. Endi buning sababini "to'qib", mashqni yakunlab qo'ysak ham bo'ladi. Masalan, mana bunday:

*Gullar ona quyoshning
Zamindagi bolasi.
Yig'lashganin boisi,
Sog'inishgan onasin...*

So'zning mazasi, ta'mini his qilish har kimning o'zida qolgan. Siz qancha ko'p badiiy kitob o'qisangiz, she'r va qo'shiqlar yod olsangiz, obrazli aytganda, so'zlar ummonida suzsangiz, shuncha tez va ko'p so'zlarning "ta'mi"ni his qilasiz, ta'sir kuchini payqaysiz.

Abdurahmon Akbar



- ① Sarlavhani o'qiganingizda nima xayolingizga keldi?
- ② Hayotda nimaning ta'mi bo'ladiyu, nimaning ta'mi bo'lmaydi?
- ③ O'ylab ko'ring-chi, qanday ta'm sizni xursand qiladi va aksincha?
- ④ Nima uchun muallif she'r deyish o'rniga "mashq" degan?
- ⑤ So'zning ta'mini yaxshiroq sezish uchun nima qilishingiz kerak ekan?



4.3. Daftardagi mashqni bajaring.




5.1. She'ni o'qing.

SO'Z BOYLOVCHI

So'z sehri deytilar,
Demak tilchi – sehrgar.
“S” o'rniga “M” qo'ysa,
“Sehr” do'nar “mehr”ga.

“A”ni olib bir zumda
“Ayoz”ni “yoz” qiladi.
“Oz” oldiga “S” yozib,
Ajoyib “soz” qiladi.

Uchiradi “qovoq”ni
“Ari” qo'yib yoniga,
Yurgizadi “oyoq”ni
Qo'shib “sakkiz” soniga.



Turli gullar ko'p, biroq,
“Karnay”ni ham “gul” qilar.
Tartib bilan yuring deb,
“Yo'l”larga chiroq” ilar.

So'zboylovchi so'z saylab,
Ko'ngillarni xushlasin.
Lekin sira ko'z boylab,
“Nay”ga “rang”ni qo'shmasin.

Dilshod Rajab



5.2. Daftardagi mashqni bajaring.





- 1 Shoir nima uchun “tilchi-sehrgar” deyapti?
- 2 Ko‘zboylovchi kim? U nima uchun ko‘zboylovchi deb ataladi?
- 3 So‘zboylovchi so‘zining ko‘zboylovchiga qanday o‘xshashligi bor?
- 4 Shoir she‘rda qo‘llagan qo‘shma so‘zlar rostdan ham aytib o‘tilgan so‘zlardan hosil bo‘lgan. Masalan, sakkizoyoq, qovoqari kabi. Lekin bitta so‘z unday emas. Undagi qismlarning qo‘shma so‘z bildiradigan ma‘noga umuman aloqasi yo‘q. O‘xshashlik esa tasodif. Bu qaysi so‘z?



6.1. Quyidagi vaziyatlardan birini tanlang.

Siz qo‘lga kiritishni juda ham xohlayotgan narsani olib berishlarini ota-onangizdan iltimos qilmoqchisiz.

Tasavvur qiling, yaqin do‘stingiz sizga yolg‘on gapirganini bilib qoldingiz. Unga o‘z fikringizni bildirmoqchisiz.

Siz bir multfilm, kino yoki kitobdan juda ham ta‘sirlandingiz. Uning mualliflariga o‘z taassurotlaringizni aytmoqchisiz.



6.2. Tanlagan vaziyatingiz asosida xat yozing.



MUSTAHKAMLASH



She'ni o'qing va unda yashiringan hayvonlarning nomini toping.

HARFLARGA HAZIL(LASHMA)

“Nina”ga “chi”ni qo’shdim,
Uchib ketdi pirillab.
“Kit”dan “k”ni oluvdim,
Jahl qildi irillab.
“Tosh”in tashlab toshbaqa,
Tilga kirdi “qur”illab.
“Bo‘r” bilan “i”ni yozdim,
Qoching endi zirillab.



Dilshod Rajab




2. Berilgan gaplarning qaysi biri to‘g‘ri yozilgan?

1. __Qalamingni, berib tur iltimos.
__Qalamingni berib tur, iltimos.
2. __Assalomu alaykum, oyijon, men keldim.
__Assalomu alaykum oyijon, men, keldim.
3. __Rahmat ovqat, shirin bo‘libdi.
__Rahmat, ovqat shirin bo‘libdi.
4. __Barakalla o‘g‘lim, umringdan baraka, top.
__Barakalla, o‘g‘lim, umringdan baraka top.



3. Partadoshingiz bilan ishleng. Sizlar o‘tgan darsda ??-betdagi topshiriqqa asosan xat yozgan edingiz. Partadoshingizning o‘sha topshiriq asosida yozgan xatini o‘qing.



9-BO‘LIM SAMARQAND – TARIX BESHIGI



“Ajratamiz” o‘yini.

O‘yin qoidalar:

✓ Har bir qatordan 5tadan o‘quvchi tanlab olinadi.

✓ O‘qituvchi doskaga quyidagi so‘zlarni yozadi: Samarqand, Buxoro, Toshkent, O‘zbekiston, Farg‘ona, London, Nyu-York, Qozog‘iston, Bishkek, Piskent, Turkmaniston, Germaniya, Turkiya, Fransiya, Parij, Berlin, Polsha, Dehli, Hindiston, Mumbai, Parkent.

✓ Tanlab olingan 5 tadan o‘quvchi navbat bilan chiqib shu so‘zlarni quyidagi jadvalga joylaydilar:

DAVLATLAR	SHAHARLAR



- ① Davlatlar deb nomlangan ustunga yozilgan so‘zlarga e‘tibor qarating. Ularda qanday o‘xshashlikni ko‘ryapsiz?
- ② Shaharlar ustuniga joylashtirilgan so‘zlarga e‘tibor bering. Aytilishi va yozilishi farq qiladigan so‘zlar bormi? Qaysi so‘zlar shunday xususiyatga ega?



Rasmi diktant.



Ba'zan ayrim so'zlarning oxirgi tovu-
shi aytilmasa ham, yoziladi:
Samarqand, baland, musht.



- 1 Samarqand shahri haqida nimalarni bilasiz?
- 2 “Qadimgi” deganda nimani tushunasiz?
“Qadimgi shahar” deganda-chi?



Matnni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ma'no-
sini lug'atdan topishga harakat qiling. Savollarga
javob bering.

BORISH KERAK BO'LGAN SHAHAR

Samarqand – dunyoning eng qadimgi shaharlar-
idan biri. U o'rta asrlarda “Yer yuzining **sayqali**”
deya e'tirof etilgan. Samarqandning qadimgi nom-
laridan biri “Smarakansa” bo'lib, “ulug' shahar” de-
gan ma'noni anglatgan. Turkiy tilda so'zlovchi aholi
esa uni “Semizkent” deb atagan.

Qadimda Samarqandni baland devor bilan o'rab
chiqishgan. O'sha devorlar shaharni dushmanlar



hujumidan himoya qilib turgan. Devor bilan o'ralgan shaharlar qal'a deyilgan. Uning 3ta darvozasi bo'lgan. Samarqand qal'asiga kirish va chiqish ana shu darvozalar orqali amalga oshirilgan.

Qal'a mustahkam bo'lsa ham, u juda ko'p hujumlarga uchragan, **urushlarga guvoh bo'lgan**. Bir necha bor **vayronaga** aylantirilgan. Ana o'sha vayronalar ba'zi manbalarda Afrosiyob deb ham ataladi.

Bundan 650 yil oldin Amir Temur bobomiz Samarqand shahrini o'z davlatining poytaxti deb e'lon qilgan. Shahar yana devorlar bilan o'rab olingan. O'shanda shaharga kirib-chiqish uchun 6ta darvoza qurilgan. Temuriylar davrida Samarqand shahri juda go'zallashib ketdi. Registon maydoni ham ayni shu davrlarda qurilgan. Bu maydonda hozir "Sharq taronalari" xalqaro festivali o'tkaziladi.

1925-yildan 1930-yilgacha Samarqand davlatimiz poytaxti edi. Olimlarning aniqlashicha, Samarqandning yoshi 2700dan oshgan ekan. Samarqand albatta borish kerak bo'lgan 50 shaharning biri hisoblanadi.

Bolalar ensiklopediyasidan



Quyida berilgan gaplarni o'qing. Ular matndagi qaysi gapga mos kelayotganini toping.

1. Samarqandni "Yer yuzining ko'rki" deb atashgan.

2. Qal'a juda ko'p urushlarda qatnashgan.

3. Ko'p marta buzib tashlangan, xaroba joyga aylantirilgan

4. Samarqand Amir Temur davlatining poytaxti bo'lgan.

5. Amir Temur va uning avlodlari Samarqandni juda ham go'zal shaharga aylantirishgan.



Quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1. **Samarqand – “Yer yuzining sayqali”.** Sizningcha, ushbu gapdagi “sayqal” so'zi qaysi ma'nolarda kelgan? Mos javoblarni belgilang.

obro'si

ko'rki

jilosi

bezagi

chiroyi

yuragi

2. **Qal'a mustahkam bo'lsa ham, u juda ko'p hujumlarga uchragan, urushlarga guvoh bo'lgan.** Sizningcha, ushbu gapdagi “guvoh bo'lgan” birikmasi qaysi ma'nolarda qo'llangan? Mos javoblarni belgilang.

ko'rgan

sababchi

shohid

tayyorgarliksiz

vayron bo'lgan

3. **Bir necha bor vayronaga aylantirilgan.** Sizningcha, ushbu gapdagi “vayrona” so'zi qaysi ma'nolarda kelgan? Mos javoblarni belgilang.

xaroba

buzilgan

qarovsiz

imorat

eski

fayzsiz



“Borish kerak bo'lgan shahar” matni asosidagi topshiriqni bajaring. Berilgan gaplarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini belgilang. Javobingizni matn orqali isbotlang.



“Amirni yenggan non” mavzusidagi audiomatni tinglang. Savollarga javob bering.



- 1 Hikoya nima haqida?
- 2 Amir nima uchun Samarqanddan nonvoy olib keldi?
- 3 Nima uchun hikoyaga “Amirni yenggan non” deb nom berilgan deb o‘ylaysiz?
- 4 Hikoyadan qanday xulosa chiqardingiz?



Matndagi narsa nomlarini bildirgan so‘zlarni eslab yozing.

Namuna: non, suv, ...



Sizingcha, “non” so‘zida nima uchun -lar qo‘shimchasi bor?




Ko‘plikda qo‘llanadigan narsa nomlarini bildiruvchi so‘zlar ishtirokida 3 ta gap yozing.

Namuna: Devor bilan o‘ralgan shaharlar qal‘a deyilgan.



Quyidagi ma‘lumotlar bilan tanishing. Ayting-chi, siz chet ellik sayyohni Samarqand bilan qanday tanishtirasiz?



SAMARQANDGA XUSH KELIBSIZ!



Registon majmuasi
Samarqandning ramzi hisoblanadi. Bu yerda Mirzo Ulug'bek, Sherdor madrasalari, Tillaqori masjidi joylashgan.

Go'ri Amir maqbarasi
Dunyoga dong'i ketgan sarkarda Amir Temurning maqbarasi.



Ulug'bek rasadxonasi
Bu yerda Mirzo Ulug'bek o'z shogirdlari bilan birga koinotni, yulduzlarni o'rgangan.

Afrosiyob yodgorligi
Afrosiyob qadimiy shahardir. U hozirgi Samarqand shahri o'rnida bo'lgan. Bu yerda arxeologlar qazilma ishlarini olib bormoqda.





4.1. Chet eldan kelgan sayyohni Samarqand bo‘ylab sayr qildirish tafsilotini yozing.



She’rni o‘qing. Nuqtalar ortida yurtimizning qadim tarixga ega shahar va viloyatlarining nomi yashiringan. She’r mazmuni hamda qofiyalari asosida ularning nomini toping.

BU – BIZNING O‘ZBEKISTON

Qaysi yerning nonlari
Kiritadi jonlarni?
Minoralari baland,
Bu sayqali



Qayerning zardo‘zlari
Shirin-shakar so‘zlari?
Mashhurdir dunyo aro,
Budir qadim



Alpomishning yeri u,
Chanqovuzning eli u.
Tog‘lari qalqon go‘yo
Albatta

Qaysi yerning lazgisi
Mo‘jizaning naq o‘zi?
Bu el juda ham azim
Hamma bilar



Yalo-yalo, yalola
Beravering savollar.
Barisi go‘zal bo‘ston
Bu bizning O‘zbekiston.

Kavsar Turdiyeva



She'r matnida tushirib qoldirilgan shahar va viloyat nomlarini yozing. Ular ishtirokida gap tuzing.

Namuna: Men yozgi ta'tilda ...ga borganman.



She'rdan ko'plikda qo'llangan narsa nomlarini topib yozing.

Namuna: minoralar, ...



She'rni yoddan aytib bering.



Quyidagi so'zlarni rasmlar bilan moslang.



Chanqovuz

Minora

Qalqon

Zardo'zlik



She'r matni asosida jadvalni to'ldiring.

Bezak san'ati rivojlangan shahar	
Alpomishning tug'ilgan yeri	
Bu yerning nonini yesangiz, joningiz kiradi.	
U yerning raqsi xuddi mo'jizaga o'shaydi.	
Tog'lari himoya qiladigan yer	



She'rdagi qofiyadosh so'zlarni toping.



Tasavvur qiling, boshqa viloyatda do'stingiz bor. Siz uni yashab turgan joyingizga taklif qilmoqchisiz. Shu mazmunda xat yozing. Yozgan xatingizda quyidagilar aks etishi kerak:



Nima uchun do'stingizni taklif qilyapsiz?

Masalan, tug'ilib o'sgan joyingiz bilan tanishtirish uchun.

Boshlanmalardan birini tanlashingiz mumkin:

1. Assalomu alaykum, do'stim (dugonam)...!
2. Salom, mening...!
3. Do'stim (dugonam) ...!
4. ...!

Undan nimalarni so'ramoqchisiz?

1. O'qishi
2. Ota-onasi
3. Nimalar bilan shug'ullanayotgani

Xulosalardan birini tanlashingiz mumkin.

1. Seni ...da kutaman, xayr.
2. Ko'rishguncha, xayr.
3. Sog'-salomat bo'l. Ko'rishguncha.
4. Seni kutib qoluvchi do'sting

Agar do'stingiz kelsa, uni qanday qiziqarli sayohat kutmoqda?

MUSTAHKAMLASH



Quyidagi soʻzlarda nuqtalar oʻrniga harf qoʻyish kerakmi? U qaysi harf? Kerakli harfni qoʻyib koʻchiring.

goʻsh...

Toshken...

balan...

Buxoro...

pult...

Parken...

Berlin...

diktan...

darax...

mush...



Koʻplikda qoʻllanadigan soʻzlarni aniqlang. Ularga **-lar** qoʻshimchasini qoʻshib, gaplar tuzing.

shahar

davlat

non

mashina

togʻ

devor

maqbara

rasm

Registon

soʻz

Oʻzbekiston

Alpomish

mashhur

minora

qalqon

xat



Tasavvur qiling, Samarqandlik doʻstingiz bor. U sizni Samarqandga taklif qilmoqda. Unga qayerlarga bormoqchi, nimalar qilmoqchi ekaningiz haqida xat yozing.

9-BO‘LIM YOZUVNI KIM IXTIRO QILGAN?



Rasmlarda aks etgan so‘zlarni toping.



eshik



ko‘z



o‘simlik



?



?



?

tog‘

ilon

suv



Rasmga diqqat bilan qarang.




- 1 Ayting-chi, bu qadimiy rasmni yozuv deyish mumkinmi?
- 2 Yozuv deyish mumkin bo‘lsa, unda nimalar haqida yozilgan bo‘lishi mumkin? O‘ylab ko‘ring.



Rasmdagi voqealarni yozing.



Daftardagi qadimiy yozuv matnini o‘qing. O‘z matningiz bilan solishtiring.



ovchi



uy



dengiz sheri



- ① Nima deb o'ylaysiz, belgi va rasmi yozuvlar hozir ham bormi?
- ② Buyumlar solingan qutida, mahsulot qadog'ida, qurilmalarda, yo'l bo'yida, do'konlarda va oshxonada uchraydigan belgilarni eslaysizmi?
- ③ Ularning ma'nosini bilasizmi?



Yozuvlar faqat harflar ko'inishida emas, balki turli **belgilar** va **rasmlar** shaklida ham bo'ladi.




YOZUVNING TARIXI

A

Qadimda hali yozuv ixtiro qilinmagan edi. U vaqtlarda odamlar "buyumli yozuv"dan foydalanishgan. Masalan, ovchi yo'lda ustma-ust terilgan toshlarni ko'rgan **va** shu yaqin-atrofdagi yirtqich hayvonning uyasi borligini bilib olgan.

人 odam

木 daraxt



B

Yozuv 10 ming yillar oldin Suriya davlati hududida ixtiro qilingan. Dastlabki yozuvlar rasmi edi, ular da gap yoki so'z biror narsaning surati bilan ifodalangan. Bu yozuvlar tosh, suyak yoki g'or devorlariga yozilgan.

D

Keyinroq Qadimgi Misr va Xitoyda iyeroglifli yozuv paydo bo'lgan. Bu yozuvda so'z biror shakl bilan ifodalangan. Har bir so'zning alohida shakli bo'lgan. Bu yozuvni o'rganish juda qiyin edi, **chunki** mingdan ortiq iyerogliflarni yodda saqlash hammaning ham qo'lidan kelavermaydi.

E

Iyeroglif va rasmlil yozuvda har bir so'z uchun alohida shakl bo'ladi. So'zlar juda ko'p, tovushlar esa so'zlarga nisbatan kam. Shuningdek, so'zlar ana shu tovushlarning birikishidan tashkil topadi. So'zni emas, tovushni yozuvda ifodalash qulay bo'lishini tushunib yetgan odamlar harfli yozuvni o'ylab topishdi.

F

Ilk harfli yozuvni finikiyaliklar ixtiro qilishgan. Finikiy alifbosi 22 ta harfdan iborat edi. Finikiy yozuvi o'rganish va yozish uchun qulay bo'lgan, **shuning uchun** bu yozuv tez orada butun dunyo bo'ylab tarqaladi. Hozirgi yozuvlarning deyarli barchasi qadimgi finikiy yozuvi asosida shakllangan.

“Jajji akademik” jurnalidan



- ① “Buyumli yozuv” deganda nimani tushundingiz?
- ② Dastlabki yozuvlar qanday bo'lgan?
- ③ Iyeroglifning oddiy harflardan farqi nimada?
- ④ Finikiy alifbosi qanday alifbo edi?
- ⑤ Tovush va harfning farqini tushuntira olasizmi?
- ⑥ Sizingcha, lotin alifbosidagi qaysi harflar finikiy alifbosidan olingan bo'lishi mumkin?



Matn qismlarini quyidagi sarlavhalar bilan moslashtiring.



Matndagi barcha gaplarni mazmunan bog'lab turgan so'z qaysi deb o'ylaysiz?

Iyerogliflar

Yozuvlar

Rasmlar

Tovushlar



Quyida buyumli yozuv haqida berilgan ma'lumotni o'qing.

Miqdorni ifodalash uchun turli toshlar, chig'anoqlardan foydalanilgan.

Bir xabarni uzoq masofaga yetkazish uchun tutun, gulxan, baraban ovozi kabilar qo'llangan.

Ramziy ma'no berilgan buyumlardan foydalanilgan: slavyan qabilalarida non-tuz – do'stlik belgisi.



Kichik guruhlarga bo'linib, o'qituvchingiz bergan qisqa ma'lumotni buyumlar yordamida ifodalang.



“Yozuvning tarixi” matni asosida bo'sh o'rinlarni to'ldiring.




Jadvaldagi gaplarning 1- va 2-qismini o'zaro moslang.



So'zlarni to'g'ri yoki xato yozilganini matn yordamida tekshiring. Agar so'zlarda xato bo'lsa, ularni to'g'rilab, keyingi katakka yozing.



“Dangasa harflar” ertagini tinglang.





- ① Aka-uka katta “O” va kichik “o” harfi nima uchun raqamlar mamlakatiga ketib qolishibdi?
- ② Ular nimani o‘ylashibdi?
- ③ Harflar mamlakatidagi qirol kim ekan? Nima uchun aynan u qirol bo‘lgan deb o‘ylaysiz?
- ④ “A” harfi qanday maslahat beribdi?
- ⑤ Qirolning qaysi so‘zni yozishda boshi qotibdi?
- ⑥ “B” harfi qanday maslahat beribdi?
- ⑦ 4 va 5 raqami tutib kelganda, aka-uka “O” lar qayerda edi?
- ⑧ Qirol qochoq harflarga nima deb tanbeh beribdi?
- ⑨ Nima uchun ertak “Dangasa harflar” deb nomlangan?



Jadvalning ikki ustunidagi gaplarni solishtiring. Ulardagi farqni aniqlang.

Ular katta “O” va kichik “o” yo‘qolib qolganidan qattiq qayg‘urishibdi.	Ular katta “O” va kichik “o” yo‘qolib qolganidan juda tashvishga tushishibdi.
Qirolning boshi qotibdi	Qirol o‘ylanib qolibdi
Boshqa ilojimiz yo‘q	Boshqa chorimiz yo‘q
Bunga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi.	Bunday qilish mumkin emas.
Aybiga iqror bo‘lib	Aybdor ekanligini tan olib



Berilgan gaplarning to‘g‘ri yozilganini belgilang.



Ertakdagi o‘zingizga yoqqan 3 ta gapni yozing. Har bir gapni bosh harf bilan boshlang.




- *Gap tugallangan fikrni bildiradi.*
- *Gapda so‘zlar bir-biri bilan bog‘lanadi.*
- *Gapning birinchi so‘zi bosh harf bilan boshlanadi.*





YOZUV “YOVUZ” BO‘LMASIN

“Q” o‘rniga “F” yozsang,
“Qil”dan “Fil” paydo bo‘lar.
“Gado”ning boshi ketsa,
Albatta “ado” bo‘lar.
“Bulbul”ni “G‘ulg‘ul” dema,
“B” o‘rnin “G” olmasin.
“Z” o‘rniga “R” yozma,
“Ko‘z” “ko‘r” bo‘lib qolmasin.
“S”ni “L”ga almashib,
Tiniq “Soy”ni “Loy” qilma.
Harflarni chalkashtirib,
Gapni poyma-poy qilma.



Dilshod Rajab



- 1 Shoir nima uchun “qil” bilan “fil” so‘zlarini qiyoslagan?
- 2 “Gado” bilan “ado” so‘zlarining ma‘nosini bilasizmi?
- 3 Nima uchun bulbulni “g‘ulg‘ul” demaslik kerak?
- 4 “Tiniq “Soy”ni “Loy” qilma” gapini izohlang.
- 5 Aslida nima poyma-poy bo‘lishi mumkin?
- 6 She‘r sarlavhasidagi “yovuz” so‘zining ma‘nosini bilasizmi?
- 7 Qaysi ertak yoki multfilmda yovuz qahramon haqida eshitgansiz?
- 8 Sizingcha, she‘rga yana qanday sarlavha qo‘yish mumkin?



She‘rdan bitta tovush bilan farqlanayotgan so‘zlarni ko‘chiring.



Rasmdagi belgilarni izohi bilan moslang.





Quyidagi belgilarni izohlang va ma'nosini yozing.



- 1 Bu belgi va rasmlı yozuvlarnı qayerlarda uchratasız?
- 2 Nıma deb o'ylaysız, yozuvning bunday turıdan nega foydalanamız?



“Bo'g'in” o'yinini o'ynaymız!

O'yın sharti:

O'qıtuvchı bolalarga bitta so'z aytadı. Bolalar aytilgan so'zning oxirigi bo'g'ini bilan boshlanuvchı so'zni topib yozadilar va yozgan so'zlarining oxirigi bo'g'iniga so'z topib yana o'yinni davom ettiradilar. Bunda birinchi aytilgan so'zning oxirigi bo'g'ini keyingi so'zning birinchi bo'g'iniga to'g'ri kelishi kerak bo'ladi. Shu tariqa o'yin davom etadi. Eng ko'p so'z topib yozgan o'quvchi g'olib bo'ladi.



Maktab

tabriknoma

madadkor

korxonona

nabira

MUSTAHKAMLASH



She'zni o'qing.

YOZUV "YOVUZ" BO'LMASIN

"M" – mushukdek dingquloq,

"Miyov-miyov pochcha"dir.

"F" – fayzli ayvonda

Misli faner tokchadir

"J" – jayxunning suvida

Turgan jajji qarmoqcha.

"N" – nuragan ko'prlkmi,

Yoki nozik ilmoqcha?

Doim peshi pirplrar,

Ko'rinishdan "P" – bayroq.

Yurar qornin do'mpaytib

Dimog'dor "D" baqaloq.

"Y" – Yo'ldoshvoy yogqotgan

Yog'och cho'zma ayrisi.

"H" – holvaxo'r Husannmg
Tor karavot-so'risi.

"T" – hali sim tortilmay,
Tip-tik turgan smyog'och.

"V" – vatanga vizillab
Sho'ng' iyotgan qaldirg'och.

Yashar "L" ham lug'atda,
Laqabi emish "ketmon".

Ustda – "Tutuq belgisi",
Pastroqda u – "Vergul"jon.

Barcha harflar kitobda

Bizga qalin o'rtoqdir.

Bilimning keng yo'liga

Boshlaguvchi so'qmoqdir.



She'rdagi qaysi harf nimaga o'xshatilganini yozing.

Namuna: M – mushukning quloqlariga.



Quyida berilgan matnning nechta gapdan iboratligini toping. Kerakli tinish belgisini qo'yib, matnни ko'chiring.

Bor ekan-da yo'q ekan, och ekan-da to'q ekan, qadim zamonlarda, uzoq tomonlarda bir ertakka o'ch Aqlbek degan bolakay bor ekan bobosi unga ko'p ertaklar aytib berar ekan ularni miriqib eshitib, ma'nosini tushungan Aqlbek o'rtoqlariga ham o'rni kelganda to'g'ri fikr-gaplar aytarkan.

Dilshod Rajab



Rasmga qarang. Berilgan gaplarni o‘qing.



Jamila “Kamalak”
kuyini chalmoqda.

Ibrohim “Kamalak”
nomli rasm
chizmoqda.

Zarifa “Kamalak”
nomli she‘r
yozmoqda.



- 1 Nima deb o‘ylaysiz, musiqa, rasm va she‘rning qanday o‘xshash jihatlari bor?
- 2 Musiqa, rasm va she‘rning bir-biridan farqi nimada?
- 3 Kamalakni tasvirlab berishda rasm chizishning qanday ustunligi bor?
- 4 Kamalakdagi eng yoqtirgan rangingiz qaysi?



1. Tasviriy san‘at kitobingizda uchratgan rasmlaringizni so‘zlar bilan moslashtiring. So‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qiling.

haykaltaroshlik

rangli qalamlar

natyurmort

guash


akvarel

palitra

mo‘yqalam



Quyidagi shakllarning nomlarini yozing.



Berilgan soʻzlarga mos keluvchi ranglar nomini yozing.



RASSOMLAR BAHSI

Qohira shahrida dunyoga dongʻi ketgan ikkita rassom **yashar** edi. Ikkisi ham oʻzini yurtning eng **yaxshi** rassomi deb bilardi.

Kunlarning birida ular bahs boylabdi. Yurtning eng yaxshi musavviri kim ekaniga aniqlik **kiritmoqchi** boʻlishibdi. Bir **donishmand kishini** hakam qilishibdi. Soʻng rassomlar uch kun **ichida** bittadan surat **chizishib** hakamning oldiga **keltirishibdi**.

Dastlab **birinchi** rassom chizgan surati ustidagi



pardani olibdi. Suratda bir bosh uzum o'ta mahorat bilan, yorqin **ranglarda** tasvirlangandi. Uzum barglari esa shabadada qimirlagandek tuyilardi. Hatto bir qush uchib kelib "uzum"ga **tumshuq** uribdi. Buni ko'rib yig'ilganlar musavvirning

mahoratiga qoyil qolishibdi.

So'ngra ikkinchi rassom chizgan suratini ko'rsatibdi. Biroq surat ustidagi pardani olishga **shoshmabdi**. Birinchi rassomning esa sabri yetmapti, pardani olish uchun qo'lini suratga cho'zibdi. Buni **qarangki**, rassomning qo'llari qog'ozga urilibdi. Aslida, parda ham surat ekan!

Shunda hakam debdi:

– Bu bahsda ikkinchi rassom g'olib bo'ldi. Negaki, birinchi musavvir faqat **qushni** alday oldi, **ikkinchisi** esa mahoratli rassomni ham aldadi.

"Gulxan" jurnalidan



- ① Rassomlar qayerlik edi?
- ② Rassomlar nega bahs boylashadi?
- ③ Sizingcha, hakam adolatli qaror chiqardimi?
- ④ Siz qaysi suratni yaxshiroq deb hisoblaysiz?
- ⑤ Rassomlardan birining o'rnida bo'lsangiz, qanday surat chizar edingiz?
- ⑥ Sizingcha, rasm qanday chizilishi kerak?





“Rassomlar bahsi” matnida ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni bo‘g‘inga ajratib yozing.

Namuna: so‘ng-ra, ...



Topishmoqlarni o‘qing va javobini toping.

O‘sar ko‘kka bo‘y cho‘zib,
Qulochday bargin yozib.
Xipcha bel, zarrin soqol,
Tishlari zich, dur misol.

Tim qora kichkina xol,
To‘xtatar yo‘lda darhol.

Rangi har xil,
Nomi bir xil.

Dum-dumaloq barkash non,
Ko‘k yuzida suzadi.



Siz topishmoqlarning javobini qaysi belgilarga qarab topdingiz?



Rang, hajm va shakl-shamoyilni bildiruvchi so‘zlarni ustun shaklida yozing.



Berilgan maqollardan qarama-qarshi ma‘noli so‘zlarni aniqlab yozing.

Gapni oz so‘zla,
Ishni ko‘p ko‘zla.

Yaxshi so‘z qand yedirar,
Yomon so‘z pand yedirar.

Erta turgan ish bitirar,
Kech turgan ko‘p turtinar.

Achchiq savol berib,
shirin javob kutma.

To‘g‘ri boshni
egri qilich kesmas.

Kattaga hurmatda bo‘l,
Kichikka izzatda.





Rasmlarga diqqat bilan qarang.

ZUMRAD VA QIMMAT



- 1 Rasmlarning qay birida Zumrad, qay birida Qimmat tasvirlangan? Bir qarashdayoq Zumrad va Qimmatni tanidingizmi?
- 2 Rasmdagi qaysi narsalardan Zumradni tanidingiz?
- 3 Rasmdagi qaysi narsalardan Qimmatni tanidingiz?
- 4 Qimmatning kiyimlari, yuz ko'rinishi qanday tasvirlangan? Nima uchun bunday?
- 5 Zumradning kiyimlari, yuz ko'rinishi qanday tasvirlangan? Nima uchun bunday?



Zumrad va Qimmatga xos belgi, xususiyatlar asosida jadvalni to'ldiring.



Zumrad va Qimmatning qarama-qarshi tomonlari haqida gaplar tuzib yozing. Yuqorida to'ldirgan jadvalingizdan foydalaning.

Namuna: Zumrad **odobli**, Qimmat esa **odobsiz** qiz ekan.






Rasm va she'ni taqqoslang.

KUNGABOQARLAR

Quyoshga yuzin burar
Kungaboqar – lashkarlar.

Go'yoki salom berar
Generalga askarlar.

Xudoyberdi Komilov



- 1) Rasm va she'ning o'xshash taraflarini bormi? Ular qaysi?
- 2) Rasm va she'ning farqli taraflari bormi? Ular qaysi?
- 3) Tabiatni tasvirlab berishda rasmning kuchli taraflari nimada?
- 4) Tabiatni tasvirlab berishda she'ning kuchli taraflari nimada?
- 5) She'rda kungaboqarlar nima uchun askarga o'xshatilgan?
- 6) She'rda quyosh nima uchun generalga o'xshatilgan?



She'ni ifodali o'qing.

KO'KLAM YOMG'IRI

Saxiy tuproq – ona Yer
Ochsin, deb yana chiroy.
Qo'shiq aytib, "chakillab"
Ishga tushar Yomg'irvoy.



U shu'ladek sochilib
G'ubor qochgan gulzorga,
Pufaklar taqdim etar
Sharqiragan anhorga.

Yo'llar, yo'laklar zumda
Yarqirar oyna kabi.
Shamollashdan cho'chibmi,
Titrar gullarning labi.

Tomlar qo'shiq aytishar,
Yashnar adir, dalalar.
Yengil tortib, qirlarda
Tebranishar lolalar...

Abdurahmon Akbar



She'ni o'qiganda ko'z oldingizga kelgan manzara-
ning rasmini chizing.



“Ketzayapmiz bo'yoqni” she'rini tinglang.



“Ketzayapmiz bo'yoqni” she'ri asosida berilgan
gaplarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini belgilang.
Javobingizni matn orqali isbotlang.



She'rda qo'llangan tasviriy san'atga oid so'zlarni
yozing.

Namuna: bo'yoq,



- 1 Ayvon uyning qaysi qismi?
- 2 “Shiqillatdik tuyoqni” deganda bolalar qanday harakat qilishgan?

- 3 “So‘zdan chiqmaslik” deganda nimani tushunasiz?
4 Siz she‘rga qanday sarlavha qo‘ygan bo‘lardingiz?



Rasmga qarab she‘r yozing.



- Partadoshingiz bilan rasmda aks etgan voqea haqida fikr almashing.
- She‘r uchun chiroyli sarlavha o‘ylab toping.
- Yozgan she‘ringizni partadoshingizga bering.
- Partadoshingizning she‘ri haqida o‘z fikringizni ayting.



MUSTAHKAMLASH



1. Matnni o'qing.



To'garakda yangi natyurmort qo'yilgan. Natyurmort qahramonlari qandaydir qush tulumini, olma va eng qizig'i, oddiy tovuq tuxumidan o'n barobar keladigan gipsdan yasalgan, katta oppoq tuxum.

To'garak az'olariga bir varaqdan qog'oz, bo'yoq, cho'tka beriladi.

Chizishni bo'yoqda boshladim, qo'rqmasdan boshladim, suv bo'yoqni oqizib-oqizib boshladim.

Qush uchib ketishga tayyorday jonli chiqdi. Olma yeb qo'yishimga tayyor dum-dumaloq chiqdi, "doda" tuxumni o'xshatish mehnat talab qildi, ter to'kishga to'g'ri keldi. Tuxum oq emasmi, o'xshatish qiyin bo'ldi. Rangni nozik berdim, bo'yoqni suyuq berdim, soyani quyuq berdim.

Binoyi chiqdi.

Alisher Mirzo

"Kallaxonalik yigitcha" asaridan



- 1 Natyurmort so'zini tushundingizmi?
- 2 Rassom nimalarning rasmini chizdi?
- 3 U narsalar haqiqiy edimi?
- 4 Uning ishi uchun nimalar kerak bo'ldi?
- 5 Qaysi narsani o'xshatish qiyin bo'ldi? Nima uchun?
- 6 Oq tuxumni yaxshiroq o'xshatish uchun rassom nima qildi?
- 7 "Binoyi" so'zining ma'nosi nima?



Rasmdagi hayvonlar qanday tovush chiqarishini ayting.



Qo‘shiqni birgalikda kuylang.

Chip-chip jo‘jalarim,
Chip-chip-chip jo‘jalarim.
Mening jajji jo‘jalarim,
Turli tuman jo‘jalarim.



Keling sizga suv beraman,
Keling sizga don beraman
Hoy, mening jo‘jalarim,
Hoy, mening jo‘jalarim.



Chip-chip jo‘jalarim,
Chip-chip-chip jo‘jalarim.
Mening jajji jo‘jalarim,
Turli tuman jo‘jalarim.





- ① Jo'jalarning chiqaradigan ovozini yozuvda qanday ifodalar ekanmiz?
- ② Tovuqning chiqaradigan ovozini ham yozuvda ifodalab ko'ring-chi.
- ③ Kuchuk va mushukning chiqaradigan tovushini qanday yozamiz?
- ④ Yana qaysi hayvonlarni bilasiz, ularning chiqaradigan tovushini yozib bering.



1. She'rlarni o'qing. Ovozlariga taqlid so'zlarni namunadagi kabi yozing.

Namuna: jo'ja – chip-chip.

Ona chumchuq va bola chumchuq

Don topib ona chumchuq,
Der chiriq-chiriq.
Xursand, sig'mas olamga:
- Olib boray bolamga!

Don topib bola chumchuq,
Der chiriq-chiriq.
- Kelmasdan sherik, o'rtoq,
Yeb olay tezroq.



Rauf Tolib



Atrofdagi tovushlarni yozuvda ifodalash uchun ishlatadigan so'zlarimiz **taqlid so'zlar** deyiladi.





2. Namunadagi kabi birikmalar yasab, yozing.

Namuna: g'oq-g'oq qilmoq = g'oqillamoq
g'a-g'a qilmoq = g'ag'alamoq

vov-vov

miyov-miyov

qu-qu

mo'-mo'

g'uq-g'uq

vish-vish



“Kulcha” qo'shig'ini tinglab birgalikda kuylang.



“Kim oladi shuginani” o'yinini o'ynang.




Qo'shiqni tinglang. Quyidagi she'r uning davomi.
Qo'shiqqa o'xshatib kuylang.

Oyijon, oyijon-a
Quloqqinam og'ridi-ya,
Quloqqinangdan oying o'rgilsin,
Nimalarga og'ridi-ya.
Do'konlarda bo'lar emish,
Bozorlarda sotar emish,
Ana uning nomi tilla zirak
O'shanga og'ridi-ya,
O'shanga og'risa-yo, alam-o, alam.



Oyijon, oyijon-a,
Bilakkinam og'ridi-ya,
Bilakkinangdan oying o'rgilsin,
Nimalarga og'ridi-ya.
Zargarlarda bo'lar ekan.
Do'konlarda sotar ekan,
Uning nomi bilakuzuk
O'shanga og'ridi-ya.
O'shanga og'risa-yo, alam-o, alam.






5.1. She'ni o'qing.

ARRA G'IZ-G'IZ

Tolmi, terak, yo qayin,
O'tin bo'lar zum sayin.
Arra g'iz-g'iz, arra g'iz-g'iz.

Sen tort, men tort qilmaymiz,
Charchash nima bilmaymiz.
Arra g'iz-g'iz, arra g'iz-g'iz.


G'iyos Komilov



- ① She'rdagi nima uchun "arra g'iz-g'iz" deyilmoqda?
- ② Narsalardan chiqadigan yana qanday tovushlarni bilasiz?



3. Rasmlar va ulardan chiqadigan tovushlarni moslashtiring. Daftaringizga yozing.



shar-shar

g'uv-g'uv

taq-taq

shitir-shitir

jiring-jiring

shov-shov

gumbur-gumbur



4. Ovozlarini eshiting. Chiqayotgan ovozlarni yozuvda ifodalang.



5. Namunadagi kabi birikmalar yasab, yozing.



Namuna: *shitir-shitir = shitirlamoq,
taq-taq = taqillamoq*

jiring-jiring

shov-shov

gumbur-gumbur

shar-shar

g'uv-g'uv

taq-taq

shitir-shitir



6. Taqlid so'zlarni qatnashtirib 6 ta gap tuzing.

Namuna: *Osmonda momaqaldiroq gumburladi.*



Ikki guruhga bo'ling. Doskani ikkiga bo'lib oling. Bir guruh hayvonlar tovushiga taqlidni, ikkinchi guruh boshqa taqlid tovushlarni yozishi kerak.



- ① Alla qo'shig'ini eshitganmisiz? Uni kimlar aytadi?
- ② Musiqasiz ham qo'shiq bo'lishi mumkinmi?




Gulbahor Erqulova ijrosidagi "Alla" qo'shig'ini tinglang.




Matni o'qing, savollarga javob bering.

ALLA

To'g'risini aytsam, ayam menga aytib bergan al-lani eslay olmayman. U payt juda kichkina edim-da, so'zlarni ham yaxshi tushunmasdim. Hali o'zimning tilim chiqmagan edi – gapirishni bilmasdim. Keyin



kattaroq bo'lib bilganman. Bolani beshikka bog'lab uxlatish uchun alla aytishadi. Bola tug'ilganidan boshlab beshikka bog'lanmay qo'yguncha unga alla aytiladi. Ayam singlimni uxlatish uchun aytgan al-lasini eshitib yotib uxlab qolganimni elas-elas eslayman.



3-sinfda o'qiyot-ganimda menga radio-cha olib berishgan. Orqasiga quvvattosh solsa bo'lardi. Chiroq bo'lmasa ham ishlayverardi. U paytlar har k u n i chiroq o'chardi. Kechki soat to'qqizda radiocham-dan alla qo'shig'i boshlanardi. Habiba Oxunova de-gan ayol kuylardi u allani.

Alla ayta, jonim bolam, quloq solgin, alla Shirin allam tinglab asta, uxlab qolgin, alla Yuzlaringga tomgan suvga hayron bo'lma, alla-ya Baxtinga sen katta bo'lgin, ko'rar ko'zim, alla

Men shu allani eshitib uxlab qolardim.

Katta bo'lib o'rgandim – alla hamma millatlarda bor ekan. O'zbeklar aytadigan allada onaning or-zusi, komil inson haqidagi o'ylari qo'shib kuylanadi. Farzandini ham o'shanday dunyoda eng yaxshi in-son bo'lishini istaydi.

*Istiqboling porloq sening, jajjiginam alla-yo
Men sho'rlikday to'kilmagin, xazon bo'lma alla*

Hozir telefonimga o'sha allani saqlab olganman. Har zamonda eshitib turaman. Endi alla eshitsam uxlab qolmayman, yoshligimni, qishlog'imni eslayman. Bolalar bilan soyda cho'milganimiz, yong'oq otish, loy po'rsildoq o'ynaganlarimiz ko'z oldimga keladi. Nega shunaqa ekanini hech bilmayman.



- ① Muallif nima uchun ayasi aytib bergan allani eslay olmaydi?
- ② Alla qanday qo'shiq? U kim uchun kuylanadi?
- ③ Onalar qachondan boshlab alla aytishadi?
- ④ Quvvattosh nima?
- ⑤ Radio va radiocha o'rtasida qanday farq bor?
- ⑥ Ona allasida nimalar ifodalanadi?
- ⑦ Ona bolasi uchun Ollohdan nimalar so'rashi mumkin?



Onagiz, buvingiz, bobongiz yoki dadangizdan yoshliklarida qanday qo'shiqlar aytib o'ynashganini so'rang. So'zlarini daftaringizga yozib keling, aytilishini o'rganing.



Kattalardan o'rganib kelgan qo'shiqlaringizni aytib bering. Sinfdoshingiz aytgan qo'shiqlarni ham o'rganib oling.



MUSTAHKAMLASH



Ko'k ustundagi hayvonlar nomini sariq ustundagi taqlid so'zlarga moslashtiring.

mushuk
kuchuk
ilon
tovuq
chumchuq
sigir
g'oz
o'rdak




vishillaydi
ququlaydi
miyovlaydi
mo'laydi
g'oqillaydi
g'ag'alaydi
vovullaydi
chirqillaydi



Quvvattoshni qayerlarda ishlatamiz?

QUVVATTOSH



Biror o'yin haqida aytib bering. Quyidagi savollarga javob bo'ladigan gaplardan foydalanishga harakat qiling.

1. O'yinning nomi nima?
2. O'ynashni kimdan o'rgangansiz?
3. Unda qanday qo'shiqlar aytiladi?
4. O'ynash qoidalari qanday?
5. Yutish uchun nimalar qilish kerak?

11-BO‘LIM YO‘L QOIDASI – UMR FOYDASI



Rasmlardagi har bir narsaga diqqat qiling va savollarga javob bering.



A



B



D



E



- 1 A rasmda bolalar nega to‘xtab turishibdi?
- 2 B rasmda bolalar nima sababdan yo‘ldan o‘ta boshlashdi?
- 3 D rasmdagi bolaning harakatlari to‘g‘rimi? Nima uchun?
- 4 E rasmdagi bolaning harakatlari to‘g‘rimi? Nima uchun?



Yo‘ldagi harakat va holat bilan bog‘liq so‘zlarni yozing.

Namuna: o‘tdi, kutdi, chalg‘idi, ikkilandi.



Shaxs va narsalarning harakatini bildirgan so‘zlar **nima qildi?** yoki **nima qildilar?**; **nima qilyapti?** yoki **nima qilyaptilar?**; **nima qiladi?** yoki **nima qiladilar?** so‘roqlariga javob bo‘ladi.

Masalan:

1. Svetoforning qizil chirog'i yondi (nima qildi?).
2. Bolalar piyodalar yo'lakhasidan o'tdilar (nima qildilar?).



Rasm asosida gaplar tuzing va yozing. Gaplardagi harakat va holatni bildirgan so'zlarni so'roqlar orqali aniqlang.



1. Sizingcha, belgilardagi ranglar nimani bildiradi?
2. Belgilarni so'zlar bilan moslashtiring. Vazifasini muhokama qiling.



1



2



3



4



5



6



7



8



9



10



11



12



13



14



15

piyodalar o'tish joyi

shifoxona

oshxona

hojatxona

velosiped yo'lkasi

ta'mirlash ishlari

yer osti yo'li

tosh otilish xavfi

chiqindi yig'ish joyi

yer usti yo'li

temiryo'l bor

toshlar tushishi

it bilan mumkin emas

velosipedda harakatlanish taqiqlangan

kirish taqiqlangan



O'zingizga yoqqan yo'l belgilaridan 4 tasini tanlang va izoh yozing.

Namuna: 2-belgi: Velosipedda harakatlanmang!



- 1) Maktabingiz oldidagi piyodalar o'tish joyini bildiruvchi belgini ko'rganda, haydovchi nima qilishi kerak?
- 2) Siz yo'lni doim belgilangan joydan kesib o'tasizmi? Nega unday qilasiz?



Matnni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni lug'atdan topishga harakat qiling. Savollarga javob bering.

YOLG'IZ QOLGAN YO'L BELGISI

Ko'cha chetida yo'l belgisi bo'lardi. Uning odamlarga foydasi ko'p edi. Biroq kunlar o'tib belgi zerika boshladi:

– Eh, buncha zerikarli bo'lmasa? Yo'lda **yalpayib yotadigan** chiziqlar ham ketib qolganiga bir hafta bo'ldi. O'shandan beri yolg'izman. Odamlar va mashinalar ham kam o'tadigan bo'lib qoldi. Yetar, odamlar **gavjum** joyga ketaman.



Shunday deb belgi **yo‘l yoqalab** yura boshladi. U qushlar sayrashini, yo‘l chetidagi ariqning quvnoq shildirashini tingladi. Tabiatga mahliyo bo‘lgancha o‘z o‘rnidan ancha uzoqlashib ketdi.

Bu orada maktabda darslar tugadi. Bolalar har doimgidek ilgari belgi turgan joydan yo‘lni kesib o‘tishardi. Chunki ular belgining ketib qolganini bilishmasdi-da. Boshqa tomondan “Kamaz” ham yo‘lda belgi yo‘q ekan deb shoshib kelardi. “Kamaz” yo‘ldan o‘tayotgan bolalarga **ko‘zi tushdi-yu**, g‘ildiraklari chiyillab **zo‘rg‘a** to‘xtadi.

Bolalar qichqirig‘ini eshitgan yo‘l belgisi qo‘rqib ketdi. Nima qilib qo‘yganini **bir zum** o‘ylab turdi-yu, **yuragi qinidan chiqib** ketay dedi. U o‘z joyiga **halloslagancha** yugurib keldi. Bolalarning sog‘-salomat ekanini ko‘rib ko‘ngli joyiga tushdi.

– Bo‘ldi, endi hech qachon o‘rnimni tashlab ketmayman. Doim haydovchilarga bu joydan bolalar kesib o‘tishi haqida bildirib turaman.

“Yo‘l qoidalari haqida ertaklar” to‘plamidan



- ① Yo‘l belgisi nima sababdan ketib qoldi?
- ② Hikoyaning qoraytirib ko‘rsatilgan qismlari kimning tilidan aytilgan?
- ③ “Zerika boshladi” hamda “zerikib qoldim” birikmalarida qanday ma‘no farqi mavjud.
- ④ Yo‘l belgisi bo‘lgan ishdan qanday xulosa chiqardi?
- ⑤ Bolalar yo‘l belgisiga qaramasdan yo‘lni kesib o‘tishlari to‘g‘rimi? Nega?
- ⑥ Hikoyaga boshqa sarlavha tanlang.





Ko'k rangda berilgan so'zlarni yashil rangda berilgan izohlar bilan moslashtiring.

yalpayib yotmoq

odam ko'p bo'lgan joy

gavjum

bir amallab, qiyinchilik bilan

yo'l yoqalab

qo'rqib ketish

zo'rg'a

hansirash, o'gir nafas olish

ko'zi tushmoq

ko'rib qolish

bir zum

yo'l chekkasidan yurish

halloslash

o'zini erkin tutib, bermalol yotish

yuragi qinidan chiqish

juda qisqa vaqt



Berilgan gaplarni o'zgartirib yozing.



Rasmlarga e'tibor bering. Rasmlarga mos holat va harakat fe'llarini yozing. Ular ishtirokida gaplar tuzing.



Audio shaklidagi hikoyani diqqat bilan tinglang.



Matn asosida berilgan savollarga javob bering.



She'ni ifodali o'qing. Savollarga javob bering.

PIYODALAR QO'SHIG'I

- Mashinani kim haydar?
- Haydovchi-da, haydovchi!
- Unda yana kimlar bor?
- Yo'lovchilar, yo'lovchi!

Yo'lni kesish joyida
Shunday bo'lar qoida.
Doim amal qil bunga,
Ko'rasan faqat foyda.

Chalg'imag sira gapga
Qaramoq kerak chapga.
Angraymay, oldga, so'ngga
So'ng qarash kerak o'ngga.

Shoshmay tursin shoshqaloq,
Otmay tursin shataloq.
Yonganda yashil chiroq
Shunday yo'ldan o'tadi.

Bir soniya o'tkazsa,
Bir daqiqa ketkazsa,
Bir zungina yutqazsa,
Bir umrni yutadi.



- 1 Yo'ldan kesib o'tish qoidalarini bilasizmi? Aytib bering.
- 2 Yo'ldan kesib o'tishda nega birinchi navbatda chapga qarash kerak?
- 3 Shoshqaloq bola qanday bo'ladi?
- 4 Nega biror ishni shoshilmay qilish kerak?
- 5 She'rni yod oling. Uyda she'rdagi voqeaga mos rasm chizing.



She'r matnida qo'llangan harakat va holatni ifodalovchi so'zlarni aniqlab yozing.



Quyidagi rasm asosida og'zaki matn tuzing. Unda quyidagi qoidalarga amal qiling:

- ✓ Rasmni diqqat bilan kuzating.
- ✓ Nimalar haqida gapirmoqchisiz, aniqlab oling.
- ✓ Fikringizni tartibli bayon qiling.
- ✓ So'zlarni aniq va to'g'ri talaffuz qiling.
- ✓ Matningizni xulosalang.





Sinfdoshlaringiz tuzgan hikoyalarni diqqat bilan tinglang. Xatoga yo‘l qo‘yilgan so‘zlarni yozib boring.



“Yo‘l va bolalar” multfilmini tomosha qiling. Eslab qolgan qoidalaringizni yozib oling.



Topishmoqlarda yashirilgan transport nomlarini toping.

Bir tuyam bor, guldiroq,
Hamma yeri yaltiroq.

Cho‘zilib yotar narvon,
Undan o‘tar uy-karvon.



Baland temir uy yurar,
Burni tog‘larni surar.



Qoidalarni buzuvchi, boshqalarning hayotiga xavf soluvchi haydovchilarga xat yozing.

1. Qoidabuzar haydovchiga xat yozayotganingizda quyidagi murojaat so‘zlaridan qay birini tanlagan bo‘lardingiz?

Qadrli haydovchi, hurmatli haydovchi, haydovchi.

2. Maqsadingizni bildirishda quyidagilardan qaysi birini tanlardingiz?

- A. Bilasizmi, nima uchun sizga xat yozyapman?
- B. Sizga xat yozishdan maqsadim shuki...
- D. Men sizga xat yozishga qaror qildim, chunki...
- E. Meni sizga xat yozishga majbur qilgan narsa...
- F. Har safar yo‘ldan o‘tayotganimda....

3. Xatingiz oxirida qaysi eslatmani tanlardingiz?

- A. Haydovchi, unutmang, sizni... !
- B. Xatimning oxirida shuni aytmoqchimanki, ... !
- D. Hurmatli haydovchi, o‘zingizni va bizni asrang!
- E. Unutmang, yo‘l qoidasi – umr foydasi!

MUSTAHKAMLASH



1. Matnni o'qib, bo'sh o'rinlarga berilgan so'zlardan mosini qo'ying.

Osilmang, kuting, turmang, joy bering, chiqmang, o'tib oling, to'xtagandan, so'zlashmang, chiqarmang

JAMOAT TRANSPORTIDA

Transport vositasiga chiqishda: transport vositalarini bekatlarda _____, yo'ning transport vositasi qatnaydigan qismiga _____. Avtobus, trolleybus, tramvay va boshqa transport vositalariga ular batamom _____ so'ng chiqing. Jamoat transportiga chiqish orqa eshikdan, tushish esa old eshikdan amalga oshiriladi. Avtobus, trolleybus, tramvayga ular harakatlanayotgan paytda sakrab chiqmang, orqasiga _____, zinapoyalarida _____.

JAMOAT TRANSPORTI SALONIDA

Salonga kirgan zahoti, o'rtasiga _____, chiqish maydonchalarida to'xtab turmang. Keksa odamlarga, nogiron va yosh bolali yo'lovchilarga .

Jamoat transportida shovqin qilmang va baland ovozda _____. Haydovchini ishidan chalg'itmang. Oynalardan boshingizni _____. Agar chiqish bekatingiz yaqinlashib qolgan bo'lsa, awalroq harakat qilib chiqishga hozirlik ko'ring.

maktabim.uz saytidan



2. Yuqoridagi matndan kelib chiqib, beshta qoida yozing.

Namuna: *Transport vositalarini bekatlarda kuting.*

Qoida! *Transport vositalarini bekatda kutish kerak.*



MAKTAB OSHXONASIDA

1-qiz: Kechirasiz, siz ham navbatda turibsizmi?

2-qiz: Ha, men oxirgi navbatdaman.

1-qiz: Men esa sizdan keyin keldim. Demak, endi men oxirgiman.

2-qiz: Shunday. Navbatning boshida Nargiza turibdi, Komil ikkinchi, Jahongir uchinchi, to‘rtinchi men, oxirida esa siz.

3-qiz: Iltimos, menga bitta shirinkulcha uzatvoring.

Sotuvchi: Boshqalar qatori navbatda turing.

3-qiz: Axir, darsga kech qolishim mumkin!

Sotuvchi: Aksincha, tartib saqlansa, hech kim darsga kechikmaydi.

3-qiz: Uzur, men bilmovdim.



- ① Odamlar qanday vaziyatlarda navbatda turishadi?
- ② Navbatda turishning odobi bormi?
- ③ Tartib va tartibsizlik deganda nimani tushunasiz?
- ④ Navbatda turish qoidalariga amal qilmasangiz, nimalar sodir bo‘lishi mumkin?



Ushbu gaplardagi farqni toping va izohlang.

Kechirasiz, siz ham navbatda turibsizmi?



Siz ham navbatda turibsizmi?

Iltimos, menga bitta shirinkulcha uzatvoring.



Menga bitta shirinkulcha uzatvoring.

Uzr, men bilmagandim.



Men bilmagandim.



Matndan tartibni ifodalab kelayotgan soʻz va birikmalarni aniqlab yozing.

Namuna: oxirgi, sizdan keyin...



Rasm asosida xaridorlarning navbatda turish odobi haqida fikr bildiring.



Rasmdagi xaridorlarga mos keladigan soʻzlarni aniqlang. Bitta xaridorga bir nechta soʻz toʻgʻri kelishi ham mumkin?



Koʻcha-koʻyda ishlatadigan murojaat soʻzlaringizni yozing. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Namuna: opa, amaki, xola...

Amaki, keling, yordamlashaman.



IKKI YO‘L

Dilorom maktab oshxonasidan yegulik olmoqchi bo‘ldi. Qarasa, oshxonada ko‘pchilik o‘quvchilar o‘z navbatini kutmay, bir-birlarini turtib ovqat sotib olayotgan ekan. Dilorom navbatini kutsa, darsga kech qolishi yoki umuman ovqatsiz qolishi mumkin. Navbatini kutmasa, sabrsiz, tartibsiz bolalarga o‘xshab qoladi. U qaysi yo‘lni tanlaydi?

1-yo‘l

Dilorom navbatini kutib turmadi. U ham ayrim bolalarga o‘xshab boshqalarni turtib, xafa qilib o‘ziga ovqat sotib oldi. Ammo sotib olgan ovqatini xuddi o‘ziga o‘xshagan bola turtib yubordi. Natijada Diloromning ustiga ovqati to‘kildi. U ovqatsiz qoldi. To‘kilgan ovqatni tozalayman deb darsga ham kech qoldi. Darsga kech qolgani uchun o‘qituvchidan, kiyimini kir qilgani uchun onasidan tanbeh eshitdi.

2-yo‘l

Dilorom sabr qildi. Navbatni kutmaslik, tartibga rioya qilmaslik odobsizlik bo‘ladi deb o‘yladi u. Odobli bolalar qatoriga o‘tib navbatini kuta boshladi. Shu payt maktab direktori oshxonaga kirib qoldi. Oshxonada shovqin ko‘tarib, navbat talashib turgan bolalarni ko‘rib ularga tanbeh berdi. Navbatda turganlarni oldinga, tartibni buzganlarni esa orqaga turg‘izib qo‘ydi. Shunday qilib, Dilorom bemaol qornini to‘yg‘azib olishga ulgurdi. Ustiga-ustak, direktordan maqtoov ham eshitdi.



Feruza Nazar



- 1 Diloromning oldida nechta yo‘l bor?
Ular qanday yo‘llar?
- 2 Birinchi yo‘lda Dilorom nega navbatini kutmadi?
- 3 Ikkinchi yo‘lda Dilorom nega sabr qilish kerak deb o‘yladi?
- 4 Sabrsizlikning jazosi nima bo‘ldi?
- 5 Sabrning mukofoti nima bo‘ldi?



“Ikki yo‘l” matni asosida chiqargan 3 ta xulosangizni yozing.



Berilgan matnlarni o‘qing. Matnga mos sarlavhani belgilang.

Ota-bobolarimiz nonni juda qadrlashgan. Nonning ushug‘ini ham uvol qilmaslikka chaqirishgan. Nonni isrof qilishni esa katta gunoh sanashgan.

ULUG‘ NE‘MAT

Navbatlarda jismonan ojiz insonlarga – bolali onalar, keksalar va nogironlarga yo‘l beradilar. Bu toifaga kirmaydigan insonlar esa o‘zaro hurmat va intizom asosida navbatga turadilar.

NON QADRI

TARTIB-INTIZOM

Qadimda bobolarimiz suvga tupurish, turli chiqindilarni tashlashni gunoh deb bilishgan. Suvni ifloslantirgan odamni jazolashgan. Suvni qadrlash, tejash har birimizning burchimizdir.

**SUV – HAYOT
MANBAYI**

**NAVBATDA
TURISH ODOBI**






Dialog matnini tartiblang va o'qing.



- ☁ Iye, sigir bor-u, o'tloq yo'q-ku!
- ☁ Mana bu o'tloqda sigir o'tlab yuribdi.
- ☁ Hamma o'tlarni sigir yeb qo'ygan-da, dedi o'quvchi.
- ☁ O'quvchi chizgan rasmini o'qituvchisiga ko'rsatdi:



Rasmlar asosida kichik matn yozing. Kalit so'zlardan foydalaning.



*Birinchi, ikkinchi, keyin, so'ngra,
navbat bilan, oxirida*



... ..

Oshxonami yo nonga,
Borsang bozor, do'konga.
Navbatingni kut, bolam,
Toqatsiz bo'lma, Hamdam!

Teatrmi, kinomi,
Avtobus yo metromi,
Navbatingni kut doim,
Deydilar oyijonim.

Kimda tartib, yo‘q toqat,
Dakki eshitar faqat.
Xudbinlikdan bo‘l yiroq,
Hurmat topasan, o‘rtoq!

Dilshod Rajab



- ① Sizingcha, bu she‘rga qanday sarlavha mos keladi?
- ② Hamdamga oyisi nimalarni aytar ekan?
- ③ Hamdamning fikriga qo‘shilasizmi, nima uchun?
- ④ “Dakki eshitish” so‘zining ma‘nosini bilasizmi?
- ⑤ “Xudbin odam” qanday bo‘ladi?



She‘r matnidagi ketma-ketlikni to‘g‘ri toping.

A. Teatr, kinoga borganda, metro yoki avtobusda navbat kutish kerak.

B. Hurmat topish uchun xudbin bo‘lmaslik kerak.

D. Tartibsiz va sabrsiz odam boshqalardan faqat gap eshitadi.

E. Oshxonaga, non olishga, bozor, do‘konga borganda navbatini kutish kerak.

To‘g‘ri ketma-ketlikdagi harflar: _ _ _ _ _



She‘rdan kim?, nima?, qanday? so‘roqlariga javob bo‘ladigan hamda harakatni ifodalayotgan so‘zlarni jadvalga yozing.





Berilgan soʻzlarni izohlang. Ularni qaysi holatlarda ishlatishimizni ayting.

Assalomu alaykum!

Yaxshimisiz?

Marhamat

Qalaysiz?

Javob bersam maylimi?

Xush kelibsiz!

Buning narxi qancha?

Savol berish mumkinmi?

Kirsam maylimi?


Kechirasiz, menga sut kerak edi.



Rasmlarga qarang. Berilgan holatlarda qanday gaplashish kerakligini ayting.



Rasmlarga qarang. Rasmdagi odamlarning suhbatini yozing.



“Ikki yo‘l” hikoyasini tinglang.



Bir-biriga bog‘liq gaplarni to‘g‘ri belgilab daftarga yozing.

1 Dilorom sabr qildi.

2 Dilorom navbatini kutib turmadi.

3 Maktab direktori oshxonaga kirib qoldi.

4 Ovqatini xuddi o'ziga o'xshagan bola turtib yubordi.

A Ayrim bolalarga o'xshab boshqalarni itarib, xafa qilib, o'ziga ovqat sotib oldi.

B Oshxonada shovqin ko'tarib, navbat talashib turgan bolalarni ko'rib ularga tanbeh berdi.

D Diloromning ustiga ovqati to'kildi.

E Navbatni kutmaslik, tartibga rioya qilmaslik odobsizlik bo'ladi deb o'yladi u.



Gaplarni o'zaro bog'lab yozing.



“Navbat bilan javob ber” o'yini

O'yin shartlari

- ✓ Sinf 2 ta guruhga bo'linadi.
- ✓ Har bir guruh o'z ichida qur'a tashlab, navbatini aniqlab oladi. Har bir o'quvchi o'zidan oldingi va o'zidan keyingi navbatda turgan o'quvchini aniq bilishi shart.
- ✓ O'qituvchi 1-guruhga topishmoq beradi. Topishmoqning javobi 1-guruhdagi bolalardan navbat bilan so'raladi. Javobni topgan o'quvchi 2-guruhga topishmoq aytadi. 2-guruhdan topishmoqning javobini topgan bola 1-guruhdagi topishmoq bergan boladan keyingi navbatda turgan bolaga topishmoq aytadi. Shu tariqa o'yin davom etadi. O'quvchilar navbatga amal qilgan holda javob berishilari lozim.

Jarimalar

- ✓ Javob berishda navbatga amal qilmagan o'quvchi o'yindan chetlatiladi.
- ✓ Sinfdoshining javobiga aralashgan o'quvchi o'yindan chetlatiladi.
- ✓ Navbatini unutib qo'ygan o'quvchi o'yindan chetlatiladi.



Rasmi diktant. So'roq bering va javobini yozing: kimlar? nima?, qanday?, nechta?, nima qilyapti? Masalan: bola (kim?)...



55



Rasmga qarab hikoya yozing.

- ✓ Partadoshingiz bilan rasmda tasvirlangan voqea haqida fikr almashing.
- ✓ Hikoya uchun chiroyli sarlavha o'ylab toping.
- ✓ Yozgan hikoyangizni partadoshingizga bering. Partadoshingizning hikoyasi haqida o'z fikringizni ayting.



MUSTAHKAMLASH



1. To'g'ri javobni belgilang.

1. Qayerlarda navbatga turiladi?

- A) Xizmat ko'rsatuvchi bitta, mijozlar esa ko'p bo'lgan har qanday joyda.
- B) Maktab oshxonasida, kutubxonada, do'konda, dorixonada.
- C) Shifokor qabulida.

2. Navbatga turish nima uchun kerak?

- A) Jamoat joylarida tartib saqlanishi uchun
- B) Shovqin bo'lmasligi uchun
- C) g'irrom bo'lmasligi uchun



2. Sizga turli matnlardan parchalar berilgan. Ularni o'qib chiqib, nima o'xshashlik borligini toping.

Bolalar meni nega yomon ko'rishlarini aytsam, ular men tufayli yo onasidan, yo otasidan dakki eshitardi.
(X.To'xtaboyev)

Bilmasvoyning oldida bolalar yo'q edi. Shuning uchun, u, qizaloqlar bilan sang'ib yuribsan deb dakki berishlaridan qo'rqmasdi.
(N.Nosov)

O'qimasam kitobni,
Ishlamasam hisobni,
Dakki berdi ustozim:
Nima bo'ldi, deb, Kozim?!
(N.Ermatov)


Sobir erinibgina uyg'ondi. Yuz-qo'lini yuvmay dasturxon tepasiga kelgan edi, opasi dakki berdi:
– Bu nimasi, yana suv sovuqligi bahona bo'ldimi? Bor, muzdekkina suv uyquni tarqatadi. ("Tong yulduzi" gazetasidan)




Berilgan rasmlar ketma-ketligida og‘zaki hikoya tuzing.




1



2



3



4



5



6



Hikoyangizga qanday sarlavha qo‘ygan bo‘lar edingiz?



Hikoyangizdagi siz uchun eng muhim bo‘lgan bitta fikrni yozing.





Anvar Obidjonning “Bekinmachoq” she’rini tinglang.

1. She’rdagi qiz va o’g’il bolalar soni nechta?

- A. 3 ta: 2 ta o’g’il bola, 1 ta qiz
- B. 3 ta: 2 ta qiz bola, 1 ta o’g’il bola
- D. 4 ta: 2 ta qiz bola, 2 ta o’g’il bola



2. Rasmlardan bolalar o’ynayotgan joyni aniqlang.



3. Ayting-chi, lolalar bolani nima uchun imlab chaqirishdi?

4. Lolalar bolaga nimani taklif qilishdi? Nima uchun?



1. She’rdagi bolalarning ismini yozing. Bittasiga o’zingiz ism qo’ying.

2. *Imlab*, *makon* so’zlarining ma’nosini yozing.

3. She’rni o’zingizning gaplaringiz bilan ifodalab yozing.





UZUM

Bir kishi to'rt mardikorni ishlatibdi. Ularga ozgina pul berib:

Bu pulga biror narsa olib, qorningizni to'ydiring, – debdi.

Ishchilar pulni olishibdi. Fors ishchi:

– Men bu pulga “angur” olmoqchiman, – debdi.

Ikkinchi ishchi arab ekan. U:

– Men bu pulga “eynab” olishni xohlayman, debdi.

Uchinchi ishchi turk ekan. U:

– Men siz aytganlarning hech birini xohlamayman. Men uzum olmoqchiman, debdi.

To'rtinchi ishchi esa rimlik ekan. U:

– Bekorchi gaplarni yig'ishtiringlar, debdi. Men bu pulga “stafil” olmoqchiman...

Shunday qilib, ishchilar bir-birini tushunmay, baqirib-chaqirishibdi. Oxiri, janjal chiqibdi va bir-birlarini do'pposlay boshlashibdi. U yerdan o'tib ketayotgan bir odam bu janjalni ko'rib qolibdi. Ularni to'xtatibdi. U odam aqlli ekan.


Janjalning sababini so'rabdi va har birini eshitibdi. Vo-

qeani eshitgan bir odam ularni yetaklab do'konga olib boribdi.

Ularga uzumni ko'rsatibdi.

Har biridan alohida-alohida:

– Shuni xohlaysanmi? – deb so'rabdi. Ishchilarning hammasi:



– Ha, – deb javob berishibdi.

Aslida ishchilarning hammasi bir narsani xohlayotgan edi. Ular har xil tilda soʻzlaganlari uchun bir-birlarini tushunishmagandi. Aqlli odam sotuvchidan ishchilarga uzum berishini soʻrabdi. Ishchilar orasidagi janjal ham shu tarzda barham topibdi.

Jaloliddin Rumi



- ① Ishchilar nima sababdan janjallashishdi?
- ② Yoʻldagi odam qanday yoʻl tutdi?
- ③ “Bekorchi gap” qanday boʻladi?
- ④ Ayting-chi, mardikorlar nima ish qilishadi?
- ⑤ Hikoyatdan qanday xulosa oldingiz?



1. Berilgan maqollarning qaysi biri ushbu matn mazmuniga mos kelmaydi?

- A. Til bilgan el biladi.
- B. Til – dil jarchisi.
- D. Doʻst kulfatda sinalar.

2. Siz ushbu hikoyani kimga soʻzlab bergan boʻlar edingiz? Nima uchun?



“Uzum” hikoyasi asosida berilgan topshiriqlarni bajaring.



“Menga yoqqan sheʼr, hikoya, ertak” mavzusida matn tuzing.

- Sizga qaysi sheʼr, hikoya, ertak koʻproq yoqdi?
- Nimasi yoqdi?
- Qanday taassurot oldingiz?



“Kim tez aytadi?” musobaqasi

- ✓ Tez aytishlarni yaxshilab o‘qib chiqing.
- ✓ Ovoz chiqarmay aytib ko‘ring.
- ✓ To‘g‘ri nafas oling.
- ✓ Tez aytishlarni bir nafasda ayting.
- ✓ Partadoshingiz bir nafasda aytgan tez aytishlaringizni hisoblab tursin.

Qo‘zichog‘im qo‘ng‘ir, oq,
Qo‘ng‘iroqli qo‘zichoq.

Qurilishga terak kerak,
Demak, ekmoq kerak terak!

Shirin sharbatning shirasi shakardan shirin.

To‘lqin topishmoqni to‘g‘ri topdi.



Ayting-chi, tez aytishlar sizga nima uchun kerak?



Alifbodagi harflar ketma-ketligida tez aytish yozishni mashq qiling.

Namuna: *Asalari asalini ayiqdan ayamadi.*



“Topgan topaloq” musobaqasi.

- ✓ 3 ta guruhga bo‘lining.
- ✓ Topishmoqlarni o‘qing.
- ✓ Guruhingiz bilan javobini toping.
- ✓ Xattaxtadan sizga ajratilgan qismga javoblarni yozing.
- ✓ To‘g‘ri javob bilan solishtiring.

Ertak, she'r-u matnlar
Yashar bir mamlakatda.
Dunyoni o'rganishda
Uning xizmati katta.



Loy va jundan tanasi,
Hovlimizda xonasi.
Yemishi olov, xamir,
Beradi shirmoy, patir.

Qo'shig'i asli "qu-qu",
Tongni qarshi olar u.
Ko'zdan qochsin deb uyqu,
Jar soluvchi so'zi shu.



Ko'kda qilich yarqiraydi,
Suvda aksi yaltiraydi.

Oppoqqina betlari
Hoshiyador chetlari.



U bois qog'ozda jam,
Go'zal va cheksiz olam.
Tugab borar misli sham
Bilsangiz, udir

Onam, singlim, opamning
Qo'llarida o'ynaydi.
Hovli, uyni har kuni
Tozalaydi, to'ymaydi.



Oq sandig'im ochildi,
Olamga nur sochildi.

Ko'kda ko'rdim ko'prik,
Rangi – yetti turlik.



Daftaringizga o'zingizga yoqqan topishmoqlarni ko'chirib yozing.



“Yozgi ta'tildagi rejalarim” mavzusida loyiha tayyorlang.

- Ta'tilni odatda qayerda o'tkazasiz?
- Ta'tilni qayerda o'tkazishni xohlardingiz?
- Nimalar bilan shug'ullanmoqchisiz?



Yozgi ta'til uchun reja tuzing.

MATNLARDA QO‘LLANGAN SO‘ZLAR LUG‘ATI

Ahyon-ahyonda – ba‘zi-ba‘zida.
Akvarel – suvda oson eriydigan bo‘yoqning bir turi.
Arxeolog – tarixiy yodgorliklar, buyumlarni o‘rganadigan mutaxassis.
Azob bermoq – qiynash.
Baham ko‘rmoq – o‘rtada birgalikda bo‘lishmoq.
Bahs – biror narsa haqida tortishish; musobaqalashish.
Bardam – kuch-quvvatga ega; kuch-quvvatini yo‘qotmagan, tetik.
Barkash – doira yoki to‘rtburchak shaklidagi ro‘zg‘or asbobi.
Bejizga – bekorga, asossiz.
Bong – Baland ovoz, qattiq tovush.
Dakki – Nojo‘ya ish aytilgan achchiq gap, qattiq tanbeh.
Darhol – Tez, darrov, bir onda.
Diplom – biror o‘qishni bitirganda beriladigan hujjat. Diplomi bo‘lmasa uning universitetda yoki institutda o‘qiganini isbotlab bo‘lmaydi.
Doda – shevada “dada” va “ota” ma‘nosida qo‘llanuvchi so‘z.
Donishmand – olam haqida juda ko‘p ilmlarni biladigan, olim, dono inson.
Droid – robot.
Elas-elas – sal-pal, sezilishi qiyin, bilinar-bilinmas.
Farmon – podshohning buyrug‘i.
Fermar – dehqonchilik, chorva va parranda mahsulotlarini yetishtirish bilan shug‘ullanuvchi odam.
Guash – bo‘yoqning bir turi.
Gunoh – odob-axloq zid ish, nojo‘ya xatti-harakat.
Hakam – musobaqada qatnashchilarini baholaydigan kishi.
Haykaltaroshlik – San‘atning bir turi.
Haykal yasaydigan kasb, ish.
Ho‘plamoq – to‘xtab-to‘xtab ichmoq.

Hurmoq – vov-vov, ak-ak kabi tovush chiqarmoq; vovullamoq, akillamoq.
Hushyor – bo‘layotgan voqealarga, yon-veridagi hodisalarga sezgirlik, ziyraklik bilan ko‘z-quloq bo‘lib turish.
Imlamoq – imo bilan chaqirmoq; ko‘rsatmoq.
Intizom – hamma amal qilishi kerak bo‘lgan tartib-qoida.
Isrof – biror narsani o‘rinsiz, ortiqcha ishlatish.
Kredit – foyda qaytarish sharti bilan, vaqtincha foydalanish uchun pul yoki moddiy mablag‘lar berish, olish.
Kunjara – sigir, buzoq, qo‘y kabi uy hayvonlari sevib iste‘mol qiladigan mahsulot.
Mablag‘ – pul, biror narsani sotib olish imkonini beruvchi vosita.
Mahliyo bo‘lmoq – o‘sha narsaga butunlay berilmoq, es-hushini shu narsaga bag‘ishlamoq
Mahorat – Biror ish ustalik bilan bajarish; mohirlik.
Makon – vatan, maskan, joy.
Maqbara – qabr ustiga qurilgan bino yoki tosh tobut.
Mardikor – vaqtincha yoki kundalik yollanib ishlovchi ishchi.
Mas‘uliyat – biror ishni chin ko‘ngildan bajarish, javobgarlikni his qilish.
Muhtoj – biror narsaga ehtiyoj.
Musavvir – rassom.
Mutaxassis – biror sohada maxsus bilim va tajribaga ega bo‘lgan kishi.
Nasihat – Yaxshi yo‘lga solish, ta‘lim berish maqsadida aytilgan gap.
Ne‘mat – yaxshi narsa.
Palitra – rassomchilik anjomi: kerakli rang hosil qilishda foydalaniladi.

Pand – foydali maslahat, o'git, nasihat.
Poxol – donli ekinlarning quruq poyasi.
Qadr – hayotda tutgan o'rin, muhimlik holati.
Qalqon – jangchilarning tanasi qilich, nayza, kamon o'qi kabilardan himoya qiluvchi moslama. Hozirda qalqonlar miltiq o'qidan himoya qilish maqsadida kiyiladi.
Qo'sh – bir juft, ikkita.
Qo'li yengil – biror ishni mahorat bilan qiladigan odamga nisbatan qo'llanadi.
Qo'ra – yog'och, shox-shabba, panjara va shu kabilardan qilingan to'siq, g'ov, devor va shunday devor bilan o'ralgan joy.
Qulay – biror ishni bajarish, biror nimani amalga oshirish uchun eng mos keladigan
Quvvattosh – batareyka
Rasadxona – osmonni kuzatish uchun mo'ljallangan, maxsus jihozlangan bino.
Saf – qator
Saroy a'yonlari – saroyda shohning yonida ishlovchilar
Sayqal – husn, chiroy, ko'rk.
Sergak – darroz sezadigan, ziyrak.
Sir – birovga aytilmaydigan gap
Sob bo'lmoq – tamom bo'lmoq, tugamoq.
Sovrin – biror musobaqada yutganda beriladigan sovg'a.
Sovuq yemoq – sovqotmoq.
Soz – yaxshi.
Ta'm – maza, yeydigan narsaning tilga tekkanda bilinadigan xususiyati.
Taassurot – biror narsani ko'rish, o'qish, kuzatishdan odamning esida qolgan kayfiyat.
Tabib – bemorlarni davolovchi odam.
Taft – issiq, harorat.

Tanballik – ishyoqmaslik, dangasalik.
Taqiqlangan – bajarish, amalga oshirish mumkin bo'lmagan. Biror nima taqiqlangan bo'lsa demak o'sha narsa qilishga ruxsat yo'q degani.
Tejash – ortiqcha sarfga yo'l qo'ymaslik, ayash.
Tob – kishi organizmining holati; sog'liq.
Toqat – Chidash, bardosh berish qobiliyati; sabr-bardosh.
Uskuna – moslama, jihoz.
Uzra – sirtida, ustida yoki tepasida.
Vayrona – Vayron bo'lgan joy, xaroba.
Xarajat – biror narsa uchun qilinadigan sarf; chiqim.
Xayriya – bechora, kambag'al odamlarga yordam, yaxshilik qilish.
Xudbin – o'zini yoki o'z manfaatini hammadan ustun qo'yuvchi.
Yalqov – ishlashni yoqtirmaydigan; ishyoqmas; dangasa.
Yax – muz so'zining ma'nodoshi.
Yelparrak – havoni tozalash va shamol haydashga mo'ljallangan qurilma.
Yodgorlik – biror shaxs yoki voqea xotirasiga, eslab turish uchun tiklangan bino yoki haykal.
Yo'lkesar – piyodalar o'tish yo'lagi.
Zarra – ozgina, juda kam.
Zehn – biror narsani tushunish qobiliyati.
Ziqna – qizg'anchiq, xasis.
G'ajir – o'lgan narsalarning go'shti bilan ovqatlanadigan qush.
Shaxsiy – biror kishining faqat o'ziga tegishli.
Shotir – boshqalarning xizmatini qiladigan, xizmatkor, yugurdak.
Shu'la – yorug'lik, nur.
Chanqovuz – cholg'u asbobi.



Ona tili va o'qish savodxonligi. 2-qism [Matn]: darslik 2-sinf uchun /
K. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 120 b.

ISBN 978-9943-7522-9-0

UO'K 811.512.133(075.3)
KBK 81.2(5O'zb)ya71

O'quv nashri

ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI

2-QISM

*Umumiy o'rta ta'lim maktablarining
2-sinfi uchun darslik*

Muharrir *Xurshidbek Ibrohimov*
Badiiy muharrir *Sarvar Farmonov*
Rassom *Shohrux Rahmatullayev*
Dizayner *Kamola Ahmedova*
Texnik muharrir *Akmal Sulaymonov*
Sahifalovchi *Muhsina O'ktamova*
Musahhah *Mohinur Ablahakimova*

Bosishga ruxsat etildi — Bichimi 60x84 $\frac{1}{8}$.
Arial Rounded garniturası. Keglı 16 shponlı. Ofset bosma.
Shartlı bosma tabog'i —. Nashriyot-hisob tabog'i —.
Adadı — nusxa. Buyurtma ____.

Ijaraga beriladigan darslik holatini ko'rsatuvchi jadval

No	O'quvchining ismi va familiyasi	O'quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshirilgandagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1.						
2.						
3.						
4.						
5.						
6.						

Darslik ijaraga berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbarlari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marta foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari bor, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo'q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, lekin qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlari qayta joylangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqova yirtilgan, ustiga chizilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi.